

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

**A.V.MAVLONOV**

**NEFT VA GAZ KONLARI  
GEOLOGIYASI**

**DARSLIK**

**TOSHKENT - 2004**

Tuzuvchi: A.V.Mavlonov

Neft va gaz konlari geologiyasi. Darslik. ToshDTU.  
A.V.Mavlonov. 2004. 282 b.

Darslikda neft va gaz koni geologiyasi fanining rivojlanish tarixi, neft va gaz geologiyasining vazifalari, usullari va vositalari, neft va gaz kollektorlari, neft va gaz konlarining tuzilishi va ularning shaklini o'rganish, neft va gaz konlarining zahiralari va ularning energetik sharoitlari, neft va gaz konlarini ishlatishning geologik asoslari, neft uyumlarini ishlab chiqarishdagi yangi usullar va ularni qo'llashni geologik sharoitlari, gaz va gaz-kondensat konlarini ishga tushirishning xususiyatlari va ularga geologik sharoitning ta'siri, neft va gaz konlarini ishlatishni nazorat qilish, turli geologik holatlarda ishlayotgan neft-gaz konlarini ishga tushirishni tartibga solish, konlar buyicha neft va gaz chiqarishni rejalashtirish, gaz chiqarishning xususiyatlari va boshqa mavzular bo'yicha qator masalalar ko'rilgan.

Darslik 5440800 – «Foydali qazilmalar geologiyasi va qidiruv ishlari» va 5540800 –«Neft va gaz ishi» yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan.

«Geologiya va neft-gaz muhandislik pedagogikasi» kafedrasи

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ilmiy metodik kengashining qaroriga ko'ra darslik sifatida nashr etildi.

**Taqrizchilar:** «O'zLITIneftgaz» instituti direktori,  
t.f.d., prof. U.S.Nazarov

«IGIRNIGM» instituti direktori, direktori,  
g.-m.f.d., prof. A.A.Obidov

ToshDTU «Neft va gaz geofizikasi» kafedrasи mudiri,  
g.-m.f.d. prof. F.H.Zunnunov

© Toshkent davlat texnika universiteti, 2004.

## **Ikkinchi nashrga so'z boshi**

Darslik 1992 yilda talabalar qo'liga borib etganidan buyon neft va gaz konlarining geologiyasi, qazib chiqarish muammolari, neft va gaz qazib chiqarish texnikasi va texnologiyasi fanlari uchun qo'llanma sifatida xizmat qildi. Darslikning yozilganiga 10 yildan ortiq vaqt o'tdi. Bu davr ichida respublikamiz neft va gaz sanoati beqiyos natijalarga erishdi, respublikamiz neft va gaz mahsulotlarini tashqaridan keltirishni to'xtatishga erishdi, aksincha, hozirgi kunga kelib o'zimizning mahsulotlarni chetga eksport qilmoqda.

Hozirgi kunda davlat tilidagi darsliklarni kamyobligi tufayli, hamda neft va gaz sohasi talabalarining ehtiyojini qondirish va shu soha bo'yicha o'qiydigan o'lkalardagi talabalarning istaklarini inobatga olib darslikni yangi sharoit taqozosiga rioya qilgan holda qayta nashrga tayyorlash ehtiyoji paydo bo'ldi va biz bu vazifani ado etishga harakat qildik.

## **Annotatsiya**

V uchebnike "Neftepromyslovaya geologiya i geologicheskie osnovy razrabotki" privodyatsya vse meropriyatiya nachinaya ot opredeleniya tochki bureniya razvedochnoy skvajiny uyumi i proburivaniya vsey uyumi, pusk v razrabetku produktivnogo gorizonta, issledovaniya v tselyax optimalnoy razrabetki, mnogoletnyaya ekspluatatsiya, vsyakie remontnye raboty v skvajinax, vozdeystvie na prizaboynuu zonu i nakonets pri obvodnenii do 98-99% produktsii skvajiny likvidatsiya ee. Еще в uchebnike otrajenы dannye o estestvennykh rejimakh, zakachka vody v plast, noveyshie metody vozdeystviya, na plast, ohrana okrujajuushchey sredy, nablyudenie za protsessom razrabetki, planirovanie.

Uchebnik rasschitan na studentov neftegazovogo napravleniya a takje mojet byt polezen rabotnikam proizvodstva i nauchno-issledovatelskix institutov.

V nem soderjitsya 19 chertejey i 10 tablits.

## **Annotatsiya**

"Neft-gaz koni geologiyasi va ularni qazib chiqarishning geologik asoslari" nomli darslikda razvedka qudug'ini burg'ulash uchun joylashtirish nuqtasini aniqlashdan boshlab, uning burg'ulanishi, quduqda mahsuldar qatlamni ishlatishga tushirish, optimal debitni belgilash uchun quduqni tadqiq qilish, quduqni ko'p yillik ishlatish jarayoni, quduqda bajarilishi lozim bo'lgan bari ta'mir ishlari, quduq tubiga ta'sir qiluvchi turli muolajalar va nihoyat, quduqning 98-99% suvlanishi natijasida uning tugatilishi kabi barcha muolajalar ifoda qilingan. Undan tashqari darslikda qatlamlarning tabiiy rejimlari xususida ma'lumotlar, qatlamga suv xaydash, qatlamga ta'sir qiluvchi eng yangi usullar haqida, atrof muhitni muhofazasi, qazib chiqarish jarayonini nazorat qilish, uni rejalash masalalari ko'rildi.

Darslik neft-gaz yo'nalishi talabalariga mo'ljallangan hamda ishlab chiqarish xodimlari va ilmiy tekshirish institutlari mutaxassislariga ham foydali bo'lishi mumkin.

Darslikda 19 rasm va 10 jadval mavjud.

## **Annotatsiya**

In the book "Oil field geology and geological basics of development" are shown all arrangements starting spudding of exploration well and drilling out of whole layer, putting on exploitation production horizon, research for the purpose of optimal development, long-term production, various workover operations of wells, influence to the pre-bottom zone and abandonment of well if the watercut is up to 98-99% of well production. In addition, the book covers the information about natural modes of pumping the water into formation, latest methods of influence on formation, environmental control, observation of development progress, planning.

The book is dedicated for the students of oil and gas course as well as it could be useful for production workers and research institutions.

It contains 19 drawings and 10 tables.

## KIRISH

XX asrning boshida neftning xalq xo'jaligida energiya manbai sifatida salmog'i 2,5 %, tabiiy gaz esa o'sha vaqtida deyarlik ishlatilmas edi. Bu ko'rsatkich tobora ortib boradi va XX asrning 90 yillariga kelib neftning energiya manbai sifatidagi salmog'i 39%, gazniki esa 22 % ga etadi. Buning natijasida neft va gaz qolgan barcha energiya manbalaridan benihoya o'sib ketadi (ko'mir 27%, gidroresurslar 7%, atom energiyasi – 6%). Hozirgi kunda bu nisbat deyarlik o'zgarmay kelmoqda.

Neft va gazning xalq xo'jaligida bunday yuqori o'ringa chiqishiga va uning beqiyos rivojlanishiga asosiy sabab, birinchidan yuqori darajadagi energiya manbai ekanligida. Buni quyidagi solishtirishda ko'rishimiz mumkin: 1 kg yoqilg'i yonganda 7000 kkal energiya beruvchi yoqilg'ini shartli yoqilg'i deb qabul qilsak:

1 kg benzin yonganda	1,49	shartli	yoqilg'i	teng	bo'ladi
1 kg oddiy neft yonganda	1,43	"-	"-	"-	"-
1 kg mazut yonganda	1,37	"-			
1 m <sup>3</sup> tabiiy gaz yonganda	1,17	"-			
1 kg ko'mir yonganda	0,7	"-			
1 kg torf	0,35	"-			
1 kg o'tin	0,27	"-			

1 m<sup>3</sup> tabiiy gaz 1 kg neft va neft mahsulotlariga ekvivalent hisoblanadi.

Ikkinchidan, neft va gazni qazib olish ko'mirni qazib olishdan ancha arzonga tushadi. CHunonchi mehnat unumdorligi neftni qazib olishda ko'mirga nisbatan 6 marta, gazni chiqarishda esa bu ko'rsatkich 55 marta ortiqdir! Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, 1965 yilda ishlab turgan gazzkondensat koni SHebelinkada 24,6 mlrd. m<sup>3</sup> gaz olingan (30 mln.t. shartli yoqilg'iga teng) va o'sha vaqtida shu konda 632 nafar kishi ishlagan (shulardan 464 nafar ishchi), qolganlari muhandis-texnik xodimlar. SHuncha energiya berishi mumkin bo'lgan ko'mirni qazib olish uchun 60000 shaxtyor ishlaydigan 50 ta shaxta lozim bo'lar edi. Demak, gaz kondensat konidagi 1 nafar ishchi deyarlik 100 nafar shaxtyor ishini qilar ekan.

Uchinchidan, neftni uzatish uchun ketadigan xarajat ko'mirnikiga nisbatan 1,7 marta arzon, gaz uzatish esa ko'mirga nisbatan 3,37 marta arzon ekan. [1]

Sanoat korxonalarida ko'mir o'rniga neft mahsulotlari yoki gazning ishlatalishi ko'p tomondan foyda keltirishi aniqlangan. CHunonchi mis erituvchi pechlarni ko'mirdan gazga o'tkazish uch tomonlama foyda keltirar ekan, masalan bunday pechlar gazlashtirilganda ko'mir shlaki bilan birga chiqib ketuvchi mis miqdori 17% ga kamayadi, pechning ish unumdorligi 10-12% ortadi, energiya sarfi esa 25 % ga kamayar ekan.

YUqorida keltirilgan misollardan aniq bo'ladiki, hozirgi kunda energiya manbai sifatida yuqori o'rinda turgan neft va gaz hali ancha vaqt liderlikni ushlab tursa ajab emas.

Xullas, turmushimizning farovon bg'lishini neft va gaz mahsulotlarisiz tasavvur qilish mumkin emas.

Xuddi shuning uchun neft va gaz sanoati xodimlari oldiga neft-gaz konlari joylashgan yangi g'lkalarni egallash, ishlab turgan konlarimiz bag'ridan iloji boricha kg'proq neft va gaz chiqarib olishni ta'minlash, neft chiqarish texnologiyasining ilg'or usullarini izlab topgan holda, er bag'rida qolib ketayotgan kg'plab miqdordagi neftlarni yuzaga chiqarish imkoniyatlarini bajarish masalalari eng dolzarb mavzu sifatida qg'yilgandir.

YUqorida zikr qilingan vazifalar asosan neft-gaz koni geologiyasi xizmati zimmasiga yuklatilgan bg'lib, bu ishlarni ongli va bilimdon mutaxassis sifatida sidqidildan bajarilishini ta'minlash hozirgi kunning talabidir.

SHuning uchun ham neft-gaz koni geologiyasi sohasi konning mayjudligini aniqlagan quduqni ishga tushirishdan boshlab, to uning bag'ridagi barcha mahsulot imkonni boricha olinganligini ifodalovchi hujjatlar rasmiylashtirilgunga qadar bg'ladigan konning "hayot yg'li" davomidagi barcha jarayonlarni oqilonha va bilimdonlik bilan bajarilishining rahbari va ishtirokchisi bg'lishi taqozo etiladi.

Bu borada quduqlarning kovlanish jarayoni, ular bilan mahsuldor qatlamlarni ochish, ularni sinash va ishga tushirish, qatlamlarning fizik-geologik xususiyatlarinn g'rganish, ulardagi mavjud neft, gaz, kondensat va suvlarning xossalalarini g'rganish, neft-gaz uyumlari joylashgan strukturalarning tuzilishini aniqlash, konning

kesimlarini tuzish, mahsuldor qatlamdagи neft-gaz zahiralarini aniqlash va hisoblash, konning ishslash rejimlarini chamalash va uning umumiy suv siquvi sistemasidagi g'rnini belgilash, konni oqilona qazib chiqarish uchun kovlanishi lozim bg'lgan quduqlar sonini belgilash va ularning qazilish hamda ishga tushirilish navbatini aniqlash, qatlamning energetik quvvatlarini chamalash, uni qazib chiqarish uchun qg'llanishi lozim bg'lgan qatlam bosimining pasayishini oldini oladigan va undagi mahsulotni haydab chiqarish imkonini beradigan usullarni tavsiya qilish va qg'llash, hamda ularning ishini nazorat qilish, neft-gaz konlarini qazib chiqarish jarayonida er bag'ri boyliklarini va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari - hammasi neft-gaz koni geologining va geologik xizmatining vazifalaridandir.

Hozirgi sharoitda neft-gaz konlarining chuqurligi ortib bormoqda. Ulardan mahsulotning olinishi ancha murakkab sharoitlarda g'tmoqda, bular albatta texnika va texnologiyaning murakkablashuviga olib keladi va geologik xizmatning g'z ishida izchilligini, bilimdonligini taqozo etadi. Undan tashqari hozirgi sharoitda tabiatning zukko qudrati bilan g'nglab, yuzlab million yillar davomida hosil qilingan qimmatli mahsulot ayovsiz ishlatilmoqda va hozirgi darajada u davom etsa, yaqin kelajakda insoniyat bunday ajoyib mahsulotlarni tamomlaydi. Xuddi shu sababdan er osti boyliklarimizni oqilona ishlatish va ularning zahiralariga nisbatan ehtiyojkorona munosabatda bg'lishlik har bir kon geologining muqaddas burchidir.

Respublikamizning mustaqallikka erishganligi natijasida neft va gaz sanoatining rivojiga hissa qo'shadigan beqiyos imkoniyatlar yaratildi. Bu borada davlatimizni neft va neft mahsulotlari bilan ta'minlashga erishish, yurtimizning eng chekka g'lkalarigacha gazlashtirish vazifalar to'g'risidagi siyosati ustuvorlik bilan olib borilmoqda. G'lkamizning yangidan-yangi imkoniyatlari namoyon bg'lmoqda. Lekin shu joyda bir narsani ta'kidlash joizki, bizning zahiralarimiz chegarasiz emas, doimo ularning isrofiga yg'il qg'ymaslik tadorikini qilmog'imiz lozim bg'ladi.

## **1-bob. NEFT-GAZ KONI GEOLOGIYASINING RIVOJLANISH TARIXI**

## **1.1. Neft-gaz koni geologiyasining ta’rifi va vazifalari**

Neft-gaz konlari va ularning joylashgan rejalarini aniqlash, topish, ishga tushirish juda murakkab hamda ko’p bosqichli vazifalar hisoblanadi. SHunga qaramasdan bu ishlarni bajarishda anchagina muvaffaqiyatlarga erishilgan. CHunonchi hozirgi kunda Respublikamiz hududida 5 ta neft-gaz regioni mavjud bg’lib, ular quyidagilardan iborat:

- 1) Buxoro-Xeva oralig’idagi neft-gazli havza;
- 2) Ustyurt havzasi;
- 3) Surxondaryo havzasi;
- 4) Janubi-G’arbiy Hisor neft-gaz havzasi;
- 5) Farg’ona neft-gaz havzasidir.

Bulardan eng istiqbollisi Ustyurt havzasi bg’lsa, eng qadimiysi Farg’ona neft-gaz havzasidir.

Neft va gaz havzalarida ochilgan uyum va konlarning bag’ridan iloji boricha kg’proq mahsulotni er yuziga chiqarib olish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridandir.

Axir sir emaski, aksariyat neft konlaridan neft olinishi hatto er bag’ridagi umumiyligi miqdorining yarmiga ham bormay qoladi. Qatlamning neft beruvchanlik qobiliyatini oshirish hozirgi kunning va kelajakning dolzarb muammolaridandir. SHuning uchun ham neft-gaz konlariga xalq xg’jaliga nuqtai nazaridan qarash talab etiladi.

Neft-gaz konlarini ishlatishda ulardagagi mahsulotning miqdori chamalanishi va bu xom-ashyoning xalq xg’jaligi uchun lozim bg’lgan miqdori mg’ljallanadi. Bunday hisob asosan ularni statistik holatida chamalanishiga asoslangan.

Lekin neft va gazni qazib chiqarish jarayoni esa harakatdagi jarayondir. CHunki qatlamdan neft va gaz olinishi davomida undagi dastlabki holatlar vaqt g’tishi bilan g’zgarib turadi. Xuddi shuning uchun ham konlarning geologik holati bilan bog’liq bg’lgan dastlabki kg’rsatkichlar uning ishlatilishi jarayonida kechayotgan texnik holatlar bilan uyg’unlashadi va ish jarayonida bir butunlikni tashkil etadi. Buning ustiga konning ishlatilishi jarayonida bg’ladigan barcha tadbirlar iqtisodiy jihatdan chamalanishi lozim va bu ishlar xg’jalik nuqtai nazaridan katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, neft-gaz konlarini topish, ularni ishlatish juda katta ma'suliyat talab qiladigan muhim xalq-xg'jalik ahamiyatiga molik murakkab jarayondir, uni amalga oshirishda geologik, texnik, iqtisodiy sharoitlar g'zaro uyg'unlashib ketadi. YUqorida qayd etganimizdek, neft, gaz-kondensat konlarini g'rganish, u konlarni qazib chiqarishga tayyorlash jarayonidagi tadqiqotlar va g'rganishlar hamda qazib chiqarish jarayonini olib borish, uni tartibga solish davlat ahamiyatiga zga bg'lgan ish bg'lib, katta mablag' sarfini taqozo etadi. Bu ishlarni tg'g'ri tashkil qilish va boshqarish g'ta ma'suliyatli ishdir.

Neft-gaz, kondensat konlarini ilmiy asosda nazariy va amaliy jihatdan g'rganish va tadqiq qilish neft-gaz koni geologiasi fanining bevosita vazifasidir. Bu fan geologiyaning bir bg'lagi bg'lib, u neft, gaz-kondensat konlarining dastlabki holatidan tortib, to ularni qazib chiqarish jarayonlarida sodir bg'ladigan va konlarni oqilona qazib chiqarilishini ta'minlashga da'vat ztadi.

Xuddi shu sababdan fanning konlar xususidagi barcha ma'lumotlarni tg'plash, ularni tartibga solish va tahlil qilish (albatta xalq xg'jaligi nuqtai nazaridan ham) vazifasi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda albatta er ostini va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlari birinchi g'ringa qg'yilmog'i lozim.

## **1.2. Neft-gazkoni geologiyasi fanning rivojlanish davrlari va unda olimlarning hamda muhandislarning roli**

Neft-gaz koni geologiyasi fanining rivoji neft-gaz konlari qazib chiqarish nazariyasi va tajribasi bilan uzviy bog'langan hamda bir qancha davrdan iboratdir. Bu davrlarni iloji boricha sonini kamaytirib, soddalashtirishga harakat qildik. Natijada quyidagilarga erishdik: SHuni alohida qayd etmoq lozimki, neft-gaz koni geologiyasi fanining rivojlanish tarixini alohida bir g'ilka yoki mamlakat uchun ifodalab bg'lmaydi, chunki bu vazifa umumbashar kg'lamidadir. SHu sababdan biz bu mavzuni g'tmishdagи ittifoq hududida tahlil qilganmiz va tabiiyki g'sha xududdagi neft va gaz g'ilkalarini tarixidan kelib chiqqanmiz.

Neft va gaz sanoatining boshlanishi quduqlarni burg'ulashning mexanik usul bilan amalga oshirish bilan bog'liqdir. 1859 yilda Amerika Qg'shma SHtatlarida polkovnik Dreyk degan odam birinchi mexanik quduqni yurtining Ltadiana shtatida amalga oshiradi. Xuddi shunday ishni 1864 yilda Rossiyada (Kuban) kapitan Semenov bajaradi, ya'ni Rossiyadagi birinchi mexanik quduqni qaziydi. SHu sana, ya'ni 1859 va 1864 yillar AQSH va Rossiya neft sanoatining boshlanishi deb qabul qilingan.

**Birinchi dastlabki davr.** Bu davr shartli ravishda neft-gaz sanoati boshlanishidan to 1918 yilgacha bg'lgan vaqtini g'z ichiga oladi. Rossiyada 1871 yilga qadar, ya'ni neft-gazsanoati tashkil bg'lgunga qadar – neft chiqarish faqat Boku va Moykg'p tumanlarida olib borilar edi. G'sha vaqtarda neft asosan kustar usulda chelaklar orqali chuqurliga 100-150m va kengligi 1-1,5m bg'lgan qg'lda qazilgan quduqlardan olinar edi. Neft burg'ulangan quduqlardan (chuqurligi 40-70m) favvora shaklida 1864 yilda Kubanda (Kudano) va 1869 yilda Apsheron yarim orolida olinadi.

Quduqlarni jihozlash texnikasining qoloqligi tufayli kg'pincha neft qatlami qisman ochilar, unda chiqayotgan neftni "jilovlash" va tartibga solish imkoniyati mavjud emas edi. Quduqlar aksariyat qatlamni faqat 1-3 m. gina ochar va undan olinayotgan mahsulot hech qanday qazib chiqarish negizlariga asoslanmagan holda bajarilar edi. G'sha vaqtning tushunchasiga binoan neft chiqadigan quduqning ta'sifi uzoqqa bormasligi ta'kidlanardi, chunki neft faqat unda erigan gazning kuchi bilan harakatlanadi deyilar edi. SHunday bg'lsa ham g'sha vaqtdagi muhandis neftning miqdorini chamalash va zahiralarini aniqlash, qidirish hamda qazib chiqarish texnolsgiyasini takomillashtirish borasida birinchi qadamlarni qg'yaganlar.

1888 yilda A.M.Konshin degan geolog birinchi marta neftza hiralariini hisoblashda hajm usulini qg'lladi. Quduqlardagi mahsulotning vaqt g'tishi bilan kamayishining uning asil miqdoriga bog'liqligini belgilash ("Egri chiziq usuli") maqsadi uni shunday hisoblarga olib kelgan bg'lsa ajab emas. Bunday usul Koliforniya neft konlarida 1908 yilda R.Arnold va R.Anderson tomonidan taklif qilingandir.

1905 yilda I.N.Strijev Grozniy rayonidagi neft konlari zahirasini hajm usuli bilan hisobladi. 1910-1912 yillarda yirik neft –

olimi I.M. Gubkin birinchi marta g'ziga xos bg'lgan "engsimon" konlarning mavjudligini ochgan edi. I.M.Gubkin neft geologiyasi fani rivojiga juda katta hissa qg'shgan olim bg'lib, Rossiyalik neft geologiyasi fanining asoschisi hisoblanadi.

1910-1917 yillarda S.I.CHernoitskiy "'egri chiziq usulini" takomillashtirdi, bunda u shu usul natijalarini quduqlar zichligining oqilona bg'lishida foydalandi. U quduqlarning dastlabki mahsulorligini ularning zichligi darajasiga bog'liqligini hisoblashni taklif ztdi.

SHu davrlarda quduqlarni g'rganishda geofiznk usullardan foydalanish ham qg'llana boshlanadi, 1906-1916 yillarda mashhur geolog D.V. Golubyatnikov Ozarbayjon va Dog'istonning 300 dan ortiq konlarida ulardagi quduqlar haroratini muntazam g'lchab bordi. Neft koni geologiyasining ba'zi masalalarini hal qilishda geotermik gradientning qg'l kelishini birinchi marta shu kishi tavsiya etgan.

G'sha davrlardagi neft zahiralarini aniqlash, uni qazib olish va geologik ma'lumotlarni mukammallashtirish borasida qilingan ishlar nomuntazam va uzviy emas edi.

**Ikkinci davr.** 1918 yildan to 1949 yilgacha bg'lgan davrni g'z ichiga oladi. Bu vaqt davomida neft sanoati milliyashtirildi (natsionalizatsiya) va yangi texnika bilan jihozlanadi. SHu davrda neft sanoati rejali ravishda tezlik bilan rivojlana boshlaydi. 1920 yilda neft sanoatini milliyashtirilgandan sg'ng kg'plab quduqlarning kovlanishi natijasida Boku va uning tashqarisidagi tumanlarda anchagina muvaffaqiyatlarga erishildi, quduqlarning chuqurligi ham orta bordi, kg'pgina mahsulor konlar topilishiga erishildi. Bu ishlar neft chiqarishning ortishiga olib keldi.

Bu ishlar neft sanoati ishlarini ilmiy asosda tashkil etishni taqozo etardi.

Bu borada 1925 yilda Moskvada ochilgan va neft konlarini muhofaza qilish, hamda ularni oqilona qazib chiqarish ishlariga bag'ishlangan butunittifoq kengashi katta ahamiyatga ega bg'ldi. Bu kengashda M.V.Abramovich birinchi marta neft qatlamini ishlatuvchi ob'ekt sifatida qaralib, uni qazib chiqarishning oqilona sistemasini ishlab chiqishni taklif etdi.

1927 yilda neft konlarini qazib chiqarish sistemasi birinchi turkumini e'lon qilindi.

1928 yilda yirik neftchi geolog M.F.Mirchinkning Bibi-Eybat konining V svitasiga taalluqli ishi e'lon qilindi. Bunda muallif neft konining neft berish imkoniyatlarini kg'rayotganda uning inson ta'siridan xoli bg'lgan tabiiy-geologik jabhalarini va bularning quduqlar mahsuldorligiga katta ta'siri borligini uqtirib g'tadi.

M.F.Mirchink 1933 yilda chiqqan birinchi neft koni geologiyasi kitobining mualliflaridandir. 1927-28 yillarda V.V.Bilibin birinchi marta neft zahiralarini hisoblashga matematik statistikani tadbiq etadi. U 1930 yilda "Neftning er osti zahiralarini hisoblashda matematik statistika usullari" asarini z'lon qilgan. Bunda avvallari bayon qilingan "egri chiziq usuli" takomillashtiriladi va uni tuzishda matematik statistika usullari qg'llanadi.

1924 yildan asosiy neftli tumanlarning neft zahiralarini hisoblash va ularni turkumlash ishlari boshlandi.

1925 yildan geologiya komitetining maxsus komissiyasi tuziladi. Unga zahiralarning klassifikatsiyalash foydali turkumlash vazifasi topshiriladi va 1927 yilda M.V. Abramovich zahiralarni tabaqlash kategoriya fikrini taklif etadi. 1927-28 yillarda trestlarda zahiralarni hisoblash bg'yicha maxsus guruh tashish qilinadi va ular akademik I.M. Gubkin hamda S.I.Mironov boshchiligidagi har yili anjumanlarga tg'planishib, zahiralarni hisoblash bg'yicha fikrlashardilar.

1921 yilda akademik L.S. Leybenzon g'zining er osti gidravlikasi bg'yicha nazariy va eksperimental tadqiqotlarini boshlaydi va shu soha bg'yicha g'z maktabini yaratadi.

SHu davrlarda Grozniylik mashhur geologlar N.T.Lindtrop, V.M.Nikolaev, M.G.Tanaevich, M.M.CHarigin, S.N.SHangin va boshqalar neftning er ostida joylashish sharoitlarini yorituvchi asarlarini chiqara boshlaydilar. Bu ishlarda er ostida joylashish sharoitlarini yorituvchi asarlarini chiqara boshlaydilar. Bu ishlarda er ostidagi neftni harakatga keltiruvchi kuch qatlampagi uyumlarga tiralgan chekka suvlari ekanligi ta'kidlanadi. 30-yillarda I.M.Gubkin boshchiligidagi komissiya YAngi Grozniy neft koni qazib chiqarish masalalari bilan shug'ullanadi. Bunda qatlampagi suv bosimi ustida kengroq fikr yuritish, qatlamning ta'minlanish va bg'shanish joylari mavjudligi, hamda ularning neft koniga ta'siri tg'g'risida tushunchalar

kiritiladi. Bu fikrlar keyinchalik neft quduqlari ishini gidrodinamik tahlil qilish imkonini yaratgandir.

1937 yidtsa M.A.Jdanov mamlakatimizdagи gaz zahiralarini hisobladi, bunda u faqat "hajm usuli"nigina emas, "bosimning pasayish usuli"ni ham qg'lladi.

1929 yildan boshlab mamlakatimizda neft quduqlarini g'rganish ishlarida geofizik usullar ham jalb qilinishi boshlanadi. Bunda tog' jinslarining zohiriyligi qarshiligi tadqiq qilina boshlanadi. SHundan sg'ng geofizik tadqiqotlar tezlikda rivojiana boshlaydi. 1935 yildan Grozniydagи ilmiy-tekshirish instituti xodimlari tomonidan suv bosimining qatlam nazariyasi ishlab chiqildi. Bu nazariya quduqlar ta'sir doirasining cheklanganligi tg'g'risidagi mayjud fikrlarni tanqid qiladi.

1936-39 yillarda prof.V.N.IIzelkachev tomonidan quduqlarning bir-biriga ta'siri nazariyasi ishlab chiqiladi.

30-yillarda V.P.Yakovlev quduqlarni tadqiq qilish usuliga qator qimmatli takliflar kiritadi va birinchi marta qatlam sharoitida suyuqlikning siqilishini hisobga olishni taklif etadi.

30-yillarning g'rtalarida V.M.Barishev va A.N.Snarskiy (Ozarbayjon ilmiy-tekshirish instituti), A.A.Boltshiev va T.L.Mixaylovlar (Grozniy ilmiy tekshirish instituti) gazli va gazsiz suyuqliklarning filtrlanish xususiyatlarini g'rganadigan "tajriba qatlamini yasaydilar. Bunda mahsuldarlik koefitsienti ham g'rganiladi.

SHu yillarda gidrodinamika bg'yicha mutaxassislar A.M.Pirverdyan, G.B.Pixachev, B.B.Lapuk va boshqalar g'z faoliyatlarini boshladilar.

Gidrodinamik nazariyaning rivojlanishi, neft chiqarish sanoatining yangi texnika bilan jihozlanishi, quduqlarni va qatlamlarni tadqiq qilish ishlarining takomillashishi neft koni geologi zimmasiga anchagana ma'suliyat yuklaydi. Quduqlarni burg'ulash, ularni g'zlashtirish va ishlatish, qatlamlarni oqilona qazib chiqarish hamda zahiralarni hisoblash, geofizik tadqiqotlarni talqin qilishda, neft chiqarishni rejalashtirishda geologning bevosita ishtirot etishi taqozo etiladi.

1933 yilda M.V.Nikitin tahriri ostida "Neft koni geologiyasi" darsligi chiqadi. Unda neft koni geologiyasiga doir vazifalar

tartiblashtirilgandir. 1933 yilda Bokuda g'tkazilgan neftchilarning quriltoyida I.M.Gubkining ma'ruzasida neft oluvchi quduqlarni qatlamlarga joylashtirishda ular orasidagi masofaning ilmiy asosdag'i metodi talqin etiladi. Xuddi shu yillarda konni ishlatish ishlariga har tomonlama yondashish (uni quduqni ishlatishdan farqlamoq zarurligi) ta'kidlanadi, qatlamda kechadigan jarayoanlarning quduqqa ta'siri tg'g'risida fikr yuritiladi.

1932 yilda I.M.Gubkin neftlar zahirasini hisoblash tasnifini tavsiya etadi, bu masalani 1937 yildagi XVII jahon geologik kongressida ham ko'taradi. O'sha zahira klassifikatsiyasi bizda 1942 yilga qadar qo'llanildi.

1935 yilda zahira bo'yicha markaziy komissiya tuziladi, keyinchalik u Butun ittifoq komissiyasiga (VKZ) undan so'ng esa Davlat zahira komissiyasi (SSSR Ministrlar Soveti qoshidagi) (GKZ) ga aylandi.

1938 yilda Bokuda g'tkazilgan butunittifoq neftchilarning yig'ini neft koni geologiyasining rivojiga katta hissa bg'lib qg'shildi. Bunda qabul qilingan qarorlar neft konlaridagi ishlarni tubdan qayta kg'rib chiqish vazifasini kun tartibiga qg'yadi va geologlar zimmasiga anchagina ma'suliyat yuklaydi. Quduqlar nuqtasini belgilash, ularni burg'ulash va ishga solish hamda ular ishini nazorat qilish vazifalari geoglarning burchi ekanligi ta'kidlandi. Undan tashqari kon geologi zimmasiga quduqlar mahsuldorligiga qarab ularning ishlash rejimini belgilash, qatlamlar rejimini aniqlash va quduqlarning g'zaro bir-biriga ta'siri masalalarini tg'g'ri talqin qilish, neftni chiqarib olishni, qatlam bosimi g'zgarishini va shu kabilarni kuzatish geologlar zimmasiga yuklatiladi. SHu vaqtadan boshlab oliy maktablar dasturlariga neftkon geologayasi darsi kiritiladi.

1940 yilda akademik L.S. Leybenzon va profeseor B.B.Lapuk neft konlarini ilmiy asosda qazib chiqarish bilan shug'ullanuvchi maxsus guruh tashkil etadilar. 1940 yilda geologlar, gidrodinamiklar va iqtisodchilarни birlashtirgan tadqiqot guruhi tashkil qilingan (Moskva neft instituti qoshida) va keyinchalik loyihalash-tadqiqot byurosiga aylantirilgan. Bu byuro A.P.Krilov boshchiligidida faoliyat kg'rsatgan va ularni neft ishi sohasida muhim muvaffaqiyatlarni qg'lga kiritganliklarini alohida ta'kidlash kerak. 1948 yilda "Neft konlarini qazib chiqarishning ilmiy asoslari" (mualliflar A.P.Krilov,

M.M.Glagovskiy, M.F.Mirchink, N.M.Nikolaevskiy, I.A.CHarniy nomli monografiya sohamizda katta voqeа bg'ldi va mualliflar davlat mukofotiga sazovor bg'ldilar.

G'sha yili "Tabiiy gazlar konlarini qazib chiqarishnnng nazariy asoslari" (muallif B.B.Lapuk) monografiyasи ham chop etildi. Bu mashhur monografiyalarda neft va gaz konlarining ilmiy asosda qazib chiqarish uchun quyidagi masalalar hal qilinishi lozimligi kg'rsatilgan:

1. - konlarning geologik xususiyatlarini inobatga olish;
2. - geologik xususiyatlarni inobatga olgan holda gidrodinamik hisoblar natijasida quduqlarni oqilona joylashtirish ularning debiti, qatlam va quduq tubi bosimlarini hisoblash;
3. - texnik-iqtisodiy hisoblar natijasida har xil variantlarni aniqlash va natijada oqilonasini topish.

Ikkinci jahon urushi yillari barcha neftchilarning kuch va g'ayratlari bosqinchilar ustidan g'alabaga qaratilgan edi. G'sha vaqtarda Volga - O'rol oralig'idagi hududda katta neft zahiralari borligi ma'lum bg'lib, ularni qazib chiqarish masalalari juda katta ahamiyat kasb etadi. (G'sha davrda nomi kg'rsatilgan region "Ikkinci Boku" nomi bilan ham atalgan edi).

1942 yilda neft vagaz zahiralarini yangi strukturasi qabul qilinadi, bunda asosan konlarning razvedka qilinganlik darajasiga qarab zahiralar hisobga olinadi. G'sha vaqtida zahiralarni chamlash uchun qg'llanma ham ta'sis etilgan.

1946 yilda M.F.Mirchink "Neft koni geologiyasi" monografiyasini chop ettirdi. Bunda birinchi neft koni geologiyasi darsligi chiqqandan buyon neftni qazib chiqarish ishlarida vatanimiz neftchilarining qg'lga kiritgan yangiliklari va chet ellik (asosan AQSH) mutaxassislarning yituqlari g'z aksini topgandir.

G'tgan davr orasida neft xg'jaligida qilingan ishlar neft konlarini ishlatishda faqat qatlam quvvatidan foydalanishdan iborat bg'iganligini qayd etish joizdir.

Neft koni geologiyasining rivojiga shu davrda akad. I.M.Gubkin katta hissa qg'shti, uning asarlari hanuzgacha g'z ahamiyatini yg'qotgani yg'q. Neft konlarini qazish ishlarini kuzatish, nazorat qilish, boshqarish ishlariga M.V.Abramovich, M.A.Jdanov, M.I.Maksimovich, V.S.Melik-Pashaev, A.N.Musta-fin,

S.T.Ovnatonov, A.A.Trofimuk va boshqalarning qg'shgan hissalari benihoyadir.

**Uchinchi davr.** 1949 yildan to hozirgi kungacha g'tgan vaqtini g'z ichiga oladi. Bu davrning g'ziga xos xususiyati shundaki, neft sanoati shu davrda ekstensiv rivojlanish jarayoniga kiradi. Bunga asosiy sabab neft-gaz konlari mamlakatimizning turli rayonlaridan kg'plab topildi va ishga tushirildi.

Boshqirdiston, Tatariston, Belorussiya, Turkmaniston, O'zbekiston, G'arbiy Sibirlarda neft-gaz qazib chiqarish sanoati tez sur'atlarda rivojlandi. Ozarbayjon, Qozog'iston, SHimoliy Kavkaz, Ukrainadagi eski neft tumanlarada yangi-yangi konlar topildi va ishga tushirildi.

Xuddi shu davrda neft qazib chiqarish sohasining rivojida sifatli g'zgarishlar yuz berdi, neft konlarini qazib chiqarishda qatlama sun'iy ravishda suv bilan bostirish usuli qg'llana boshlandi. SHu tariqa qatlama bosimining keskin pasayishiga yg'l qg'yilmaydi.

Neft qazib chiqarish texnologiyasidagi bu yangilik neft koni geologi oldiga yangi vazifalarni qg'yadi. Avval geolog qatlama quvvatini oqilona sarflash usullarini axtarish borasida izlansa, endi unga qatlama yuboriladigan suvning neftni qaydarajada siqib chiqarishi va bu jarayonning eng oqil variantlarini izlash hamda tadqiq qilish vazifalari yuklanadi.

Qatlama suv haydash usulining nazariy asoslari A.P.Krilov, F.A.Trebin, I.A.CHarniy, V.N.II'elkachev va boshqa kg'p olimlar tomonidan ishlab chiqildi va rivojlantirildi. Qatlama suv haydash usulini konlarda tadbiq qilish, ularni qazib chiqarishni tartibga solish va tahsil qilish ishlarini amalga oshirishda F.A.Begishev, N.S.Erofeev, M.I.Maksimov, M.F.Mirchink, A.A.Trofimuk kabi kg'plab geologlarimizning hissasi beqiyosdir.

Nazariy sohadagi olimlarimizning amaliyotchilar bilan hamkorlikda qilgan ishlari qisqa muddat ichida o'zining yaxshi samaralarini berdi.

SHu ishlarning natijasida neft koni gsologiyasi fani rivojlandi, takomillashdi. Rivojlanishning asosiy yg'nalishlari neft-gaz konlari tuzilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning takomillashishi, neft-gaz zahiralarini hisoblash usullarining rivojlanishi, neft-gazning er bag'ridan olinish darajasini oshirish muammolaridan iboratdir.

Kg'rsatilgan ishlarni amalga oshirishda tadqiqotchilar oldida qatlam jinslarining xilma-xilligi, ya'ni bir xil emasligi katta qiyinchilik tug'diradi. Qatlamdagи jinslarning har xil xossalarga egaligini g'rganish va qandaydir umumiy qonuniyatlarni topish muhim vazifa hisoblanadi. Bunday muhim vazifalarни bajarishga K.B.Ashirov, V.S.Melik-Pashaev, M.I.Maksimov va boshqalar salmoqli hissa qg'shiganlar.

Neft-gaz koni geologiyasining taraqqiyotiga 1964 yilda Davlat komiteti markaziy komissiyaning kengashi katta ahamiyat kasb etdi. Bunda neft konlarini qazib chiqarishdagi ob'ektlarni aniqlash va qazib chiqarish qavatlari belgilash masalalari kg'rishgan edi. Bu tushunchalar gaz va neft konlarini qazib chiqarish sharoitlarini takomillashtirish vazifalarini qg'yadi.

SHu vaqtarda quduqlarni geofizik usullar bilan tadqiq qilish ishlari ancha keng quloch yoydi. Geofizik usullar bilan gaz-neft, neft-suv chegaralarini kuzatish va qatlamning har xil kg'rsatkichlarini aniqlash imkoniyatlari paydo bg'ldi. Bu ishlarni amalga oshirishda ayniqsa, sanoatda bevosita ishlagan amaliy geologlar va geologik xizmat xodimlarining hissasi kattadir.

1953-56 yillardan boshlab neft koni geologiyasiga statistik-ehtimollik usuli va EHMLar kirib kela boshladi. Avvalgi davrdagidan farqli g'laroq, bu usullar yaxshi natijalar berdi, kg'p joylarda ishlatishni va boshqa faoliyatni avtomatlashtirish boshlandi. Bu ishlarda V.I.Aronov, V.A.Badyanov va boshqalarning hamda M.M.Ianova-ning xizmatlari kattadir.

Vatanimiz G'zbekiston hududida neft va gazlarning mavjudligi qadimdan ma'lumki Farg'ona vodiysidagi CHimion, Moyli-suv konlari g'tgan asr boshidan ishga tushirilgan. Keyinchalik faqatgina Farg'ona vodiysidagina emas, Surxondaryo viloyatida hamda G'arbiy G'zbekistonda (geologlar tilida Buxoro-Xiva neft-gazli hudud deb atalgan) kg'plab neft va gaz, gazkondensat konlari birin-ketin ochila boshlaydi.

Hozirgi kunda respublikamiz hududida 5 ta region neft-gazli hisoblanadi, ular:

1) Buxoro Xiva neft-gazli havzasi, bu joyda barcha zahiralarning 66,9% joylashgan;

- 2) Ustyurt havzasi, u erda zahiralarning 3,2% joylashgan, lekin istiqboli juda yuksak;
- 3) Surxondaryo havzasi, uning bag'rida 7,0% zahira mavjud;
- 4) Janubiy G'arbiy-Hisor neft-gaz havzasi, uning zahirasi 5,7% ni tashkil etadi;
- 5) Farg'ona neft-gaz havzasi unda zahiralarning 17,5% joylashgandir.

YUrtimiz hududida 500 dan ortiq uyumlar 188 konda mujassam bg'lib, ularda 2 ta unikal kon, 17ta yirik konlardan iborat, qolganlari g'cta va mayda konlardir. Bu konlarda paleozoy yotqiziqlaridan to N gacha hammasi har xil darajada mahsuldordirlar.

G'zbekiston neft va gaz sohasida ham bu sohalarning rivojlanishida salmoqli hissa qg'shgan mutaxassislar talaygina. Bular orasida geoglarning g'rni alohida ahamiyatga ega.

Biz shu sohaga hissa qg'shgan ayrim mutaxassislarni sanab g'tishga jazm qildik: bular mashhur geolog va ustozlar professorlar A.M.Gabrilyan, O.M.Akromxg'jaev, A.G.Babaev, O.A.Ryjkovni alohida kg'rsatish lozim. Ulardan keyingi kadrlariga A.R.Xg'jaev, Z.S.Ibrohimov, P.K.Azimov, A.G.Ibrohimov, A.V.Mavlonov, S.T.Tolipov, E.K.Irmatov, A.A.Obidov, A.H.Agzamov va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston neft-gaz sanoatining rivojiga S.N.Nazarov, G.A.Alimjanov, A.H.Hojimatov, A.R.Muhidov, I.X.Xolismatov, B.SH.Akramov va O.G.Hayitovlarning qo'shgan hamda qo'shayotgan hissalarini qayd etmoq lozim. Ishlab chiqarishda O'.J.Mamajonov, A.K.Rahimov, O'.S.Nazarov, N.V.Salohiddinov va boshqalarni ham xizmatlari bor.

### **1.3. Neft-gaz koni geologiyasi fanining boshqa soxalar bilan bog'liqligi**

Neft-gaz koni faoliyat jarayoni boshqa tabiiy fanlar qatori juda kg'p umumiyligi va maxsus fanlar bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Neft-gaz konlarining mavjudligini aniqlash jarayonida birinchi galda ular joylashgan tuzilmalar axtariladi. Bu vazifani geofizika fanini struktura geofizikasi deb atalgan tarmog'i aniqlab beradi. Uning

esa g'ziga yarasha usullari kg'pdir. Ikkinchchi navbatda qatlam, uyum mavjudligini aniqlash uchun struktura burg'ulanadi, demak er bag'rini burg'ulash bevosita ushbu fanga yordam beradi.

Konni burg'ulash jarayonida undagi mavjud holatlarni aniqlash uchun yana geofizika faniga murojaat qilamiz, bunda quduq geofizikasi yordamida uyumning chuqurligi, uning litologik va kollektorlik sifatlari, unda mavjud suyuqlik va gazlar haqida ma'lumotlar olinadi.

Bunda biz gidrogeologiya, qatlam fizikasi, litologiya va boshqa sohalarga murojaat etishga majbur bg'lamiz.

Konning mavjudligi aniqlangach uyumni qazib olish jarayoni bilan tg'qnashamiz. Dastavval uning zahiralarini aniqlaymiz, bunda hajmiy usul, bosim pasayish usuli, statistik usul, dinamik usul va boshqa usullar bizga yordam beradi. Demak fanlarning otasi - matematika bilan qatlamdagi suyuqlik va gazlar xossasi g'rganiladi, bundan tashqari fizik, kimyo fanlarisiz biz hech narsaga ega bg'lolmaymiz.

Uyumni qazib olish muammosini bajarish uchun biz qatlamning gidrogeologik, gidrodinamik holatlarini g'rganishimiz va ularning kg'rsatmalaridan foydalanishimiz lozim. Albatta konni qazib olish muddati, olinadigan mahsulot miqdori, uning tannarxi va shu kabi masalalar, gidrodinamik va iqtisodiy hisoblar bilan bajariladi. Demak, biz er osti gidravlikasi, neft-gaz iqtisodiyoti, ularni qayta ishlash fani bilan munosabatda bg'lamiz.

Neft va gaz sohasi sanoat, qishloq xg'jaligi, neft-gaz mahsulotlarini uzatish (transport), umuman xalq xg'jaligidagi transport, maishiy xizmat sohasi va boshqa xg'jaliklar bilan chambarchas bog'liqidir.

Demak, neft-gaz sohasida mutaxassis bg'ladigan inson matematika, fizika, kimyo, er osti gidravlikasi, geofizika, gidrogeologiya, litologiya, paleontalogiya, materiallar qarshiligi, nazariy mexanika, ijtimoiy fanlar, ekologiya, kompyuter bilan ishlash sohalari bilan tanish bg'lishi kerak. Undan tashqari mutaxassis iloji boricha bir necha tillarni bilishi kerak.

## **2-bob. NEFT-GAZ KONI GEOLOGIYASINING VAZIFALARI, USULLARI VA VOSITALARI**

### **2.1. Neft- gaz koni geologiyasining maqsadi va vazifalari**

Xalq xg'jaligida neft-gaz chiqarishni geologik jihatdan asoslash hamda bu ishlarni er osti boyliklaridan oqilona foydalanish ularni iloji boricha kg'proq chiqarish va atrof-muhitni muhofaza qilish asosida olib borish - neft-gaz koni geologiyasining maqsadidir. Bu asosiy maqsad neft va gaz uyumining ichki tuzilishini g'rganish va qazib chiqarish jarayonida bg'lajak g'zgarishlar qonuniyatlarini g'rganish bilan amalga oshiriladi hamda olingan ma'lumotlar geologik texnik kompleksni oqilona faoliyatini ta'minlashga qaratiladi.

Neft-gaz koni geologiyasining asosiy maqsadi qator komponentlarga bg'linadi; chunonchi: neft, gaz va kondensat zahiralarini hisoblash, neft-gaz konlarini qazib chiqarishni geologik jihatdan asoslash, uyumning neft, gaz, kondensat beruvchanlik qobiliyatini va qazib chiqarishning yuqori natija beradigan choralarini geologik jihatdan asoslash, razvedka qilish va qazib chiqarishni kuzatishni asoslash shular jumlasidandir.

Asosiy maqsadlarni amalga oshirish jarayonida mavjud bg'lgan ba'zi yordamchi komponentlarni ham e'tiborga loyiq. CHunonchi: neft va gazlarni qazib chiqarishda er osti boyliklarini muhofaza qilish, quduqlarni burg'ulash vaqtidagi geologik xizmat, neft koni geologiyasining ichki vazifalari va ularni takomillashtirish shular jumlasidandir.

Neft-gaz koni geologiyasining vazifalariga quyidagilarni mansub qilish mumkin: uyumning bir butunligini tashkil qiladigan har xil ma'lumotlarni jamlash va ularni tadqiq qilish usullarini yaratishdan iboratdir.

Uyumning bir butunligi faoliyatini ta'minlash borasida mavjud bulgan har xil ma'lumotlarni jamlash, ularni tajriba va kuzatishlar asosida tadqiq qilish usullarini yaratish, turli geologik holatlarda mavjud sharoitlarga qarab har xil kuzatishlar va tadqiqotlar yaratish hamda ularning ma'lumotlarini tahlil qilish - neft-gaz koni geologiyasining vazifasidir.

G'sha vazifalar orasida uchta asosiysini ajratish mumkin:

- 1) ob'ektni bilishga qaratilgan neft-gaz koni geologiyasining aniq ilmiy vazifalari;
- 2) metodik vazifalar (qg'llanma);
- 3) metodologik vazifalar.

Ob'ektni bilishga qaratilgan aniq ilmiy vazifalar majmuasidan kuyidagi asosiyalarini ajratish mumkin:

1. Tog' jinslarining tarkibi va xossalarini g'rganish (ularda neft mavjud bg'lса-bg'lmasa), neft, gaz, suvlarning tarkibi va xossalarini hamda geologik, termodinamik joylashish sharoitlarini g'rganish. Bunda ayniqsa, tog' jinslarining va ularga shimalgan suyuqliklar (gazlar)ning g'zgaruvchanlik xususiyatlari hamda qonuniyatlariga ahamiyat berish lozim.

2. Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslangan holda tabiiy geologik jismning shakli, kattaligi, joylashgan holatini ajratish vazifalari.

Bunda kichik qatlam, qatlam, gorizontlar va kollektorlarning joylashishi kg'rsatiladi. Undan tashqari har xil uzilmalarning mavjudligi ham kg'rsatiladi. Bu turkumda asosan uyum yoki konning birlamchi tuzilishini kg'rsatishga va aniqlashga qaratilgan vazifalar jamlanadi.

3. Neft-gaz qazib chiqarish sanoatining texnik, texnologik va iqtisodiy talab hamda imkoniyatlariga qarab geologik jismarni shartli ravishda bg'laklash vazifasi. Bunda geologik jismning har xil imkoniyatlarini belgilash katta ahamiyat kasb etadi (chunonchi, jinslarning kam, g'rta va yuqori mahsulorligini ajratish). Ikkinchи vazifa bilan birgalikda qg'yiladigan bu vazifa qatlamning zahiralarini aniqlash va uyumning joylashgan holatini belgilab berishi mumkin. Bunda texnika, texnologiya va iqtisodiyot talablari asosida uyum tuzilishining g'zgarishi mumkin bg'lган imkoniyatlari rg'yobga chiqariladi.

4. Uyum va konning tuzilishiga hamda ularning ichki nusxalariga qarab GTK klassifikatsiyalarini tuzish vazifasi. Neft-gaz uyumi va konlarining turkumlari neft-gaz koni geologiyasining vazifalarini etarli darajada hal qilib berolmaydi. Bunda geologik materiallarning har xil darajadagi tuzilishlarning qatlamni qazib chiqarish davrida g'zgarishi mumkin bg'lган holatlarini kg'rsatish

maqsadga muvofiqdir va bunday g'zgarishlarning g'zaro munosabatini g'rganish taqozo etiladi.

5. GTK faoliyati va tuzilishining g'zaro munosabatlari qonuniyatlari, ularning g'ziga xosligi va tabiatini g'rganish bilan bog'liq vazifalar. Bunda uyumning xossalari va tuzilishi bilan qazib chiqarish jarayoni kg'rsatkichlari hamda texnik komponental tuzilish ta'rifi. GTK faoliyati kg'rsatkichining foydasi (neft-gaz olinishining barqarorligi, qazib chiqarish tezligi, mahsulotning tannarxi, oxirgi neft beruvchanlik kg'rsatkichi va h.k.) orasidagi bog'liqlik tushuniladi. Bunda bir bg'limgan muayyan uyumdagi neft va gazni suv bilan siqib chiqarish, qatlamning suv bilan qamrab olish jarayonini, neft, gaz suvlarining qatlamdagi siljish yg'llari, qoldiq zahiralarining joylashish muammolarini g'rganishga qaratiladi.

6. Neft-gaz koni geolognyasi tadtqiqotlari atamalarini bir xil shaklga keltirishga va standartlashtirishga moslashgan vazifalar.

Neft-gaz koni geologiyasining metodik vazifalari quyidagilarni g'z ichiga oladi: muayyan ilmiy geologik-sanoat vazifalarini bajarish usullarining eskilarini takomillash-tirish va yangilarini yaratish asosiy vazifadir. Kg'pgina metodik vazifalar quyidagi tabaqalarga bg'linishi mumkin:

1. Murakkab sistema sifatida GTKning tayyorgarlashyo, loyihalash va faoliyatining hamma darajasida ma'lumotlarni yig'ishni tashkil qilish vazifasi. Bunga kuzatishni olib borish usullarini takomillashtirish, kuzatishlarning lozim bg'lgan soni bilan bog'liq vazifalarni echish, kuzatishlar davriyligi va zichligini belgilash, ashyoviy modellarni yaratish, ularni sinab kg'rish va kerakli ma'lumotlar olish uchun foydalanish kabi vazifalar kiradi.

2. Neft-gaz koni geologiyasi ob'ektlarini tasvirlash va ma'lumotlarni umumlashtirishning yangi usullarini rivojlanishi bilan bog'liq bg'lgan vazifalar: sg'z orqali tasvirlash, har xil chizma vositalari bilan tasvirlash, (xaritalar, grafiklar, blok-diagrammalar va h.k.), rasmiy formallashgan tasvir shular jumlasidandir. Qisqasi bu vazifalar GTKning alohida tomonlarini yoritish uchun tuzilishi lozim bg'lgan har xil modellarni yaratish usullaridan iboratdir.

3. Qazib chiqarish kg'rsatkichlari va uning mumkin bg'lgan usullarini takomillashtirish, zahiralarini hisoblash, loyihalarni va ishlab

turgan qazib chiqarish sistemalarini geologik asoslash, neft beruvchanlikning joriy va oxirgi natijalarini baholash vazifalari.

Neft-gaz koni geologiyasining metodologik vazifalarini hal qilish shuning uchun zarurki, har bir fanda bg'lgani kabi, bu erda ham davrdan davrga vaqt g'tishi bilan bilish maqsadlari va qoidalari, bilim olish va ilmiy ish usullari g'zgarib turadi. Hozirgi davrimizda fanning rivojlanishi beqiyos darajada jadalligi tufayli tafakkurni qisqa vaqt ichida qisman yoki mutlaqo almashtirish taqozo etiladi. Xuddi shu vajdan fanlarning umumiyligi rivojlanishidan ortda qolmaslik uchun ularning rivojlanishi nimaga va qanday asoslanganligini bilish zarur bg'ladi. Ayni shu savollarga metodologiya javob beradi.

Metodologiya fanining tuzilishi va ishlash usulini tafakkur qiluvchi sohadir. Umum ilmiy va xusus ilmiy metodologiyalar mavjud. Umum ilmiy metodologiya - falsafiy bg'lib, umumiy falsafiy, ularning kelib chiqish jarayonlari tadqiqotlar bilan qanday uzviy bog'lanishi va qaysi falsafiy tushunchalarga mos kelishini g'rganadi. Xusus ilmiy - metodologaya muayyan fanlarni g'rganadi. Neft-gaz geologiya metodologiyasida quyidagilarni ajratshi mumkin:

1. Neft-gaz koni geologiyasining muayyan vazifalarini bajarishdagi turli usullarning foydasini baholash, qg'llanishi mumkin yoki maqsadga muvofiq bg'lgan usullarni tahlil qilish, masalan, modellash, sistema strukturali yondashish va uning natijalarini avvaldan qg'llanib keligan usullar bilan aloqadorligini tahlil qilish.

2. Kondagi geologik tadqiqotlarning mohiyati va mazmunini tahlil qilmoq, neft-gaz koni geologiyasining g'ziga yaqin fanlar orasidagi g'rmini kg'rsatish, uni qaysi fanlar bilan aloqadorligini, undan ortiqroq rivojlangan fanlardan qanday manfaat olishi mumkinligi, ilmiy bilimlarni differentsatsiya (maydalash) va integratsiya (yiriklash) sharoitlarida neft-gaz koni geologiyasi fanining faoliyatini tahlil qilish va jamiyat tajribasiga uning qg'shgan hissasi.

3. Geologiya, texnika, iqtisodiyotning g'zaro aloqadorligi mohiyatini tahlil qilish, kon geologik tadqiqotlar vaqtida aniq ilmiy, uslubiy va sotsial masalalarni hal qilishda ularning roli va ahamiyatini belgilash.

Sg'nggi vaqlarda fanlarning umumiyligi rivojlanishida metodologik tadqiqotlarning ahamiyati oshib ketdi va unga e'tibor kuchaydi.

## **2.2. Kondagi tadqiqotlar, ulardan ma'lumot olish usullari**

Neft-gaz koni geologiyasining birlamchi ma'lumotlar manbaiga har xil usullar bilan qilinayotgan va umumiylasalalarni hal qilishga qaratilgan tadqiqotlarni kuzatishlar kiradi. Bu kuzatishlar quduqdan tog' jinslari namunasini olish, qatlamaqda gaz va suyuqliklardan namunalar olish va ularni mineralogik hamda geokimyoviy va boshqa usullar bilan tahlil kilishdan boshlanadi, Undan tashqari quduqlar geoximik va gidrodinamik usullar bilan tadqiq qilinadi. Qazib chiqarish jarayonida quduq ishini kuzatish katta ahamiyat kasb etadi.

Laboratoriyalarda maxsus asboblar yordamida kern, shlam, neft-gaz va suv namunalarini tadqiq qilish tog' jinslari, ularga shimalgan uglevodorod (UV) va suvlarning fizik-geologik xossalari tg'g'risida bevosita ma'lumot beradi. Laboratoriya sharoiti bilan qatlama muhiti g'rtasida anchagina tafovut mavjudligi tufayli olingan ma'lumotlar haqiqiysidan farq qiladi. Hozirgacha qatlama sharoitidagi namuna olish masalalari murakkabligicha qolmoqda. Faqat qatlamanidan g'sha sharoitda neft va suv olinishi mumkin. Laboratoriya sharoitida olingan ma'lumotlarga har xil yordamchi chizmalardan foydalangan holda tuzatishlar kiritiladi.

Quduqlarni geofizik usullar bilan tadqiq qilish: 1) quduqlarning geologik kesmasini g'rganish; 2) uning texnik holatini g'rganish; 3) qazib chiqarish jarayonida qatlamlarning neft-gaz bilan shimalganlik xususiyatining g'zgarishini nazorat qilish maqsadlarida olib boriladi.

Quduqning geologik kesmasini g'rganish - geofizikaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda elektrik, magnit, radioaktiv, termik, akustik, mekanik, geokimyoviy va boshqa usullardan foydalilaniladi. Bularda har xil tog' jinslarining turli xususiyatdagi tabiiy va sun'iy fizik maydonlari orqali g'rganiladi. Tog' jinslarining fizik xossalari ulardagi elektrik, qarshilik, elektrokimyo va radioaktivlik bilan hamda sh.k. qator belgilar bilan farqlanadi. Geofizik tadqiqotlar natijalari har xil diagramma kg'rinishida aks ettiriladi.

Ma'lumki, tog' jinslarining g'tkazuvchanligi, qattiqligi, zichligi neft va gaz bilan shimalganligi, ulardagi har xil radiaktiv nurlanishning mavjudligi va shu kabilar hamma jinslarda xilma-xil hamda rang-barangdir.

SHu vajdan tog' jinslarining kollektorlik xususiyatlari (g'ovakligi, g'tkazuvchanligi, suyuqlik bilan shimalganlik darajasi va h.k.) geofizik usullar bilan yaxshi tadqiq qilinadi va u geologik va laboratoriya (kernlarni g'rganish va h.k.) tadqiqotlarini asosli ravishda tg'ldiradi. Geofizik tadqiqotlarni taqqoslash natijasida tog' jinslarida mavjud kollektorlar va ularning xossalari, qatlamlarni tashkil qilgan qatlamchalarining xossalari, ularning neft, gaz va suvlar bilan shimalganligini aniqlash mumkin bg'ladi.

Quduqning texnik holatini aniqlashda inklinometriya - quduu tanasi tikligini va agar qandaydir og'ish mavjud bg'lsa (aksariyat hollarda bunday og'ishlar ma'lum darajada sodir bg'ladi) uning og'ish burchagi azimuti aniqlanadi: kavernometriya - quduqning asl diametrini aniqlash darajasini va uning mahkamlash sifatini aniqlash jarayoni hamda shu kabilar bilan bajariladi.

Geofizik usullar bilanquduq tanasiningg har bir joyida mavjud bo'lган suv oqimlarini (yaxshi tsementlangan hollarda sodir bo'ladi) aniqlash mumkin.

Quduqlarni gidrodinamik usullarda tadqiq qilish kollektorning fizik xossalari va mahsuldorligini aniqlash va quduu mahsuldorligining u bilan bog'liqligi va qatlamdagi bosim bilan bog'liqligini aniqlashga qaratilgandir. Aslida bu munosabatlar asoslangan va matematik tenglamalar bilan ifodalangan hamda qatlamning fizik kg'rsatkichi (parametr) tariqasida ularning orasiga kiradi. Quduqning debitini qatlam va quduq tubi bosimi orasidagi farqni gidrodinamik usulda asoslangandan sg'ng, shu tenglama asosida quduq yoki qatlamning kg'rsatkichlarini topish mumkin bg'ladi. Undan tashqari bu usulda neft-gaz uyumining gidrodinamik sistemasi bilan bog'langanligi darajasini aniqlash mumkin.

Neft-gaz koni geologiyasida gidrodinamik tadqiqotlarning quyidagi turlari qg'llanadi:

- 1) bosimning qayta tiklanishi (kg'tarilishi);
- 2) suyuqlikni olishning barqarorligini ta'minlash;

Harorat tadqiqotlariga qarab quduqning termogram-malari tuzib chiqiladi. Bunda quduq haroratining yuqoridan pastga qarab g'zgarishi ifoda qilinadi. Ularni geoterma deb ataladi va uning kg'rsatkichlarini kesmaning litologik xususiyatlari bilan bog'lansa, quduqning geologo-geotermik kesmasi hosil bg'ladi. Geoterma chizig'ida har xil issiqlik g'tkazishga qodir bg'lgan stratigrafik yig'indilarni kg'rsatuvchi belgilar ham qg'yilishi maqsadga muvofikdir. SHu kg'rsatkichlarga asoslangan holda geotermik gradient kg'rsatkichini topishimiz mumkin:

$$\Delta G = [(t_2 - t_1)] / (I_2 - I_1) - 100,$$

bu erda:  $t_1$ ,  $t_2 - I_1$  va  $I_2$  chuqurlikdagi harorat kg'rsatkichi.

Lozim bg'lgan hollarda geotermik g'rganishlarning barcha usullari bilan olingen natijalar asosida geotermik kesmalar va geotermik xaritalar tuzilishi mumkin. Ular umumiy maqsad yg'lida qg'shimcha ma'lumotlar beruvchi omil sifatida xizmat qilishi mumkin.

### 5.3.3. Neft-gaz uyumlarining tabiiy rejimi

Uyumning tabiiy rejimi deb neft va gazning quduqlar tubiga oqib kelishini ta'minlovchi tabiiy kuchlar yig'indisiga aytildi.

Neft qatlamlarining tabiiy rejimi xususidagi tushunchalarning nazariy asoslarini er osti gidrodinami-kasi va kon geologiyasiga tayangan holda olimlar yaratgandirlar.

Qatlamda neftni harakatlantiruvchi kuchlar quyidagilardir: g'z massasi bilan ta'sir etuvchi chegara suvlarining bosimi, tog' jinslari va suvning elastiklik xossalari tufayli ta'sir etuvchi chegara suvlarini kuchi, gaz qalpoqdagi gazning bosimi, neftda erigan holatdan ajralib chiqayotgan gazning kuchi, neftning og'irlik kuchi. Keltirilgan omillarning qaysi biri ko'proq g'z ta'siriga ega bg'lganligiga qarab rejimlar suv bosimi, elastik suv bosimi, gaz bosimi, erigan gaz, gravitatsiya rejimlariga bg'linadilar.

Gaz va gazkondensat konlaridagi asosiy kuch bosim ostida yotgan gazning hamda chegara suvlarining siquv kuchidir, shunga qarab ulardagи rejimni gaz rejimi yoki elastik suv bosimi rejimi deb ataladi.

Qatlamning tabiiy rejimi asosan geologik omillar bilan belgilanadi, bular: uyum mavjud bg'lgan suv bosim sistemasining xususiyati va unda ta'minot hududiga nisbatan uyumning qanday joylashganligi, uyumning geologo-fizik xossalari, undagi termobarik sharoitlar, uglevodorodlarning fazali holati, kollektorlarning yotish sharoitlari, uyumning suv bosimi sistemasi bilan g'zaro bog'liqligi va sh.k. Qatlam rejimi uyumning ishlatish, undan neft-gaz olinishining

jadalligi, hamda bu olinayotgan mahsulotning uyum hajmiga nisbati va taqsimlanishi ta'sir kg'rsatadi.

Uyumni qazib chiqarish jarayonida qatlam bosimining kamayii darajasi suv-neft, neft-gaz, gaz-suv chegaralarining harakatlanishi va shuning natijasida uyum hajmining hamda neft-gaz zahiralarining g'zgarishi tabiiy rejimga chambarchas bog'liqdir. Bularni qatlamga qazilishi lozim bg'lgan quduq soni va ularni joylashtirishda, ulardan olinadigan mahsulot miqdorini belgilashda, qatlam rg'parasini otish oraliqlarini belgilashda va qazib chiqarishni nazorat qilishda xamda tartibga solishda qilinishi lozim bg'lgan ishlarni bajarishda inobatga olish joizdir. Tabiiy rejim qazib chiqarish samaradorligini belgilaydi, yillik qazib chiqarish miqdorini hamda qatlamdan olinadigan hamma neftning miqdorini belgilash sharoitlarini kg'rsatadi. Tabiiy rejim sharoitining imkoniyatlariga qarab biz uyumga sun'iy suv haydash usullarini qg'llashimiz lozimmi yoki yg'qmi, degan savolga javob topamiz.

Quduqlarni ishlatish usullari va ularning muddatlari, kondagi texnologik qurilmalar hamda uni obodonlashtirish ishlari ham ma'lum darajada tabiiy rejimga bog'liq bg'ladi.

Uyumning rejimi ishlatish jarayonida har xil egri chiziqlar bilan ifodalangan qatlamning bosimi, undan olinayotgan mahsulotlar miqdori (neft, gaz, suv), ishlab turgan quduqlar va hamma quduqlar soni hamda shu kabilar bilan ifodalanadi.

Bunday kg'rsatkichlar uyumning qazib chiqarish chizmasi orqali kg'rsatiladi.

Neft uyumlari yuqorida aytganimizdek suv siquvi elastik suv siquvi, gaz siquvchi, erigan gaz, gravitatsion rejimlarda ishlatilishi mumkin. Quyida biz ularning g'ziga xos xususiyatlarini alohida-alohida tushunishga harakat qilamiz.

**Suv siquvi rejimida** asosiy quvvat manbai sifatida chekka suvlarning siquvi tufayli sodir bo'ladigan kuchlarni belgilaymiz. Bu quvvat qatlamdan olinayotgan mahsulotning g'rnini qisqa muddatda mutlaqo tg'ldiradi. Ishlatish jarayonida neft doimo harakatda bg'ladi, neft-suv chegarasining surilishi natijasida uyumning hajmi doimo kamayib boradi.


Bunday rejimda qatlamdan olinishi mumkin bg'lgan suvning miqdorini kamaytirish maqsadida chegaraga yaqin joylashgan

quduqlarning tubida qatlamning pastki qismi otilmaydi hamda ulardan olinadigan mahsulot mikdori chegaralanadi.

Bu rejimda ishlovchi konlar infiltratsion suv siquvi havzasiga joylashgan bg'lib, bunday uyumning umumiyligi havza bilan gidrodinamik bog'langanligi qoniqarli, shuning uchun ham qatlamdan olingan mahsulot tufayli kamayadigan qatlam bosimi uyum tashqarisidan unga oqib keladigan suv hisobiga tg'ldiriladi. Albatta bunday holat qatlamning g'tkazuvchanlik xususiyati hamma joyda yaxshi bg'lganda, uyum bilan suv siquvi sistemasining ta'minot hududi orasida tg'siqlar bg'limganda, qatlamdagi neftning qovushqoqligi past bg'lganda, qatlam litologik jihatdan bir tekis jinslardan tashkil topgan hollarda hamda ishlatilayotgan uyum uncha katta g'lchamga ega bg'limgan va olinayotgan mahsulot mikdori uncha kg'p bg'limganda sodir bg'ladi. SHuni alohida ta'kidlamoq lozimki, suv siquvi rejimda tg'yinganlik bosimi qatlam bosimidan ancha kam bg'lib, uyumni ishlatish davomida uning bosimidan pastligicha qoladi. Bu rejimning quyidagi kg'rsatkichlari qazib chiqarish dinamikasi jarayonida ajralib turadi (8-rasm). Dinamik qatlam bosimi undan olinayotgan mahsulot mikdori bilan uzyiy bog'langan va bu bog'liqlik boshidan oxirigacha deyarlik g'zgarmaydi. Mabodo, biz mahsulot olishni tg'xtatsak, qatlam bosimi g'zining dastlabki darajasiga kg'tarilib boradi; qazib chiqarish jarayonining boshidan oxirigacha 1t neftga tg'g'ri keladigan gaz miqdori g'zgarmas bg'lib qoladi. Neftning olinish yillik miqdori qazib chiqarishning II davrida 8-10 % ni tashkil etadi, qazib chiqarishning asosiy qismidan (I, II, III davrlar) olinadigan neftning miqdori olinishi mumkin bg'lgan neft zahirasining 85-90 % ni tashkil etadi. Neft miqdori kamaya boshlagan vaqtadan boshlab qatlamdan neft bilan suv chiqqa boshlaydi va bu suvning miqdori borgan sari osha boradi, hamda vaqt g'tishi bilan qazib chiqarish jarayonining oxiriga bu suv miqdori anchaga etishi mumkin;

Suv siquvi rejimida oxirgi neft beruvchanlik 0,6-0,8 ga etishi mumkin, chunki bu sharoitda neftni suv bilan yuvish yaxshi natija beradi, qatlam notejis emas, g'tkazuvchanlik yaxshi va hamma kg'rsatkichlar yaxshi bg'lganligi uchun yuqori neft beruvchanlikka erishiladi.

Bunday rejimda ishlagan konlar Rossiyadagi CHечен-Ingushetiya avtonom g'lkasi, Ozarbayjon Respublikasi, SHarqiy Ukrainada, Rossiyaning g'lkalari, Kuybishev, Saratov,



8-rasm. Tabiiy suv siquvi tarzida qazib chiqariluvchi neft uyumi.

a-qazib chiqarish jarayonida neft uyumi hajmining g'zgarishi; b-qazib chiqarish kg'rsatkichlarining g'zgarishi. 1-otish oralig'i, 2-neft, 3-suv, 4-suv va neftning harakat yg'nalishi, SNCH ning holati:  $SNCH_D$ - dastlabki,  $SNCH_J$ -joriy,  $SNCH_0$ -ohirgi, bosimlar:  $R_H$ -qatlam bosimi,  $R_T$ -tg'yinganlik bosimi, yillik olingan mahsulot:  $q_H$ -neft,  $q_S$ -suyuqlik, V-mahsulotning suvlanganligi, -kon gaz omili,  $K_{N.B.}$ -neft beruvchanlik koeffitsienti.

Volgogradning ba'zi neft konlari shular jumlasidandir. Unday konlar umuman olganda juda kam uchraydi.

**Elastik suv siquvi rejimi** neftni quduq tubiga haydovchi asosiy kuch qatlamidagi jinslar va ularga shamilgan chekka suvlarning elastiklik kuchlari tufaylidir, Bu rejimda olinayotgan mahsulotning g'rnini chekka suvlar qisman egallaydi, shu tufayli qatlamidagi bosimning kamayishi butun uyumga tarqaladi va undan tashqariga ham g'tadi hamda havzaning katta qismini egallaydi.

Bosim pasayishi natijasida uning siquvidan kutilayotgan jinslar va suvlar ma'lum miqdorda kengayadi va shu kuch suyuqlikni quduq tubiga haydaydi. Suvning va jinsning siqiluvchanlik koeffitsienti

kichik sonlar, lekin katta hajmdagi (uyumdan bir necha g'n hatto yuzlab marta katta bg'lgan hajm) bu kg'rsatkich natijada katta kuchni tashkil etadi va quvvat manbai bg'la oladi.

Bu kg'rsatkichni jinslar va suyuqliklarning siqiluvchanligini kg'rsatuvchi miqdordan foydalangan holda havza uchun hisoblash mumkin.


Bu erda uyumdagagi nefting siqiluvchanligi umumiyligi jins va suv hajmiga nisbatan juda oz bg'lganligi uchun alohida e'tiborga loyiqlig emas. Suv siquvi rejimi har xil geologik sharoitlarda namoyon bg'lishi mumkin. Bunday holat infiltratsion suv havzasiga namoyon bg'lishi mumkin, bunda uyum bilan uning tashqarisidagi aloqalar uncha yaxshi emas, ba'zan deyarlik yg'q, qatlamning notekisligi aniq, havzaning ta'minot g'lkasi bilan uyum orasidagi masofa katta va ular orasida tg'siqlar mavjud bg'lishi mumkin.

Undan tashqari bunday rejim neftlarining qovushqoqligi yuqori bg'lganda va uyum elizion havzada bg'lganda namoyon bg'ladi.

Elastik suv siquvi rejimi sharoitida kollektor-qatlam uyumdan tashqari yana havzaning katta qismida tarqalgan bg'lishi lozim. Undan tashqari bunday sharoitda tg'yiganlik bosimi qatlam bosimidan ancha past bg'lib, qazib chiqarishing oxirigacha bu shart saqlanish lozim.

Neftni suv bilan siqib chiqarilishi avvalga rejimdagiga g'xshash, lekin qatlam g'tkazuvchanligi pastliga, undagi neft qovushqoqligining yuqoriligi avvalgi rejimdagidek natija bermaydi, pirovardida anchagina neft qatlam bag'rida qoladi. Bunday rejimning chizmasi 9-rasmida kg'rsatilgan. Asosiy e'tiborga loyiqligi holat shundan iboratki, bu rejimda qatlamning bosimi paydar-pay pasayaveradi, lekin keyinroq borib bunday kamayish biroz sekinlashadi.

SHuni alohida qayd etish lozimki, ba'zan elastik suv siquvi rejimini elastik rejim bilan aralashtir-maslik kerak. Elastik suv siquvi rejimida olinadigan mahsulot miqdori qatlamdan olinishi mumkin bg'lgan zahiraning 5-7 % dan ortmaydi, asosiy qazib chiqarish davrida uning 80 % olinadi. Qazib chiqarishning II-davridan boshlab qatlam mahsulotida suv paydo bg'la boshlaydi va u kun sayin ortib boradi. Qazib chiqarish davrining oxirida olingan nefting miqdori 50-55% ni tashkil qiladi. Albatta har xil geologik muhitga qarab bunday rejimning kg'rsatkichlari ham rang-barangdir.



9-rasm. Tabiiy gaz suvi tarzida qazib chiqariladigan neft uyumi.

a-qazib chiqarish jarayonida qatlam hajmining g'zgarishi, b-qazib chiqarishning asosiy kg'rsatkichlarining g'zgarishi.

1-neft, 2-SNCH-dastlabki holatini belgilovchi qatlam,  $\text{GNCH}_D$ -dastlabki holati,  $\text{GNCH}_J$ -joriy holati,  $\text{GNCH}_O$ -oxirgi holati. (Qolgan shartlar 8-rasmdagidek).

Bunday rejimda ishlagan konlar kg'p uchraydi, chunonchi SHimoliy Kavkaz, CHечен-Ingushetiya, Farg'ona vodiysi konlari shular jumlasidandir.


**Gaz sikuв rejimi** sharoitida neft quduqlari neft uyum tepasida mavjud bg'lган katta gaz qalpog'i bosimi ostida harakat qiladi. Bosim kamayishi natijasida gaz kengayib, gaz neft chegarasi suriladi va neft gaz tomonidan siqib chiqariladi. Bunday holatlarda tg'yinganlik bosimi qatlam bosimiga yaqin bo'lganligi tufayli bosim pasaygach, neftda erigan gazlar ajrala boshlandi va u gaz uyumiga tg'nlanish imkoniga ega bg'ladi.

Tabiiy gaz sikuв rejimi tashqari bilan gidrodinamik aloqasi yg'q uyumlarga xosdir. Bunday holatlarda uyum tashqarisidagi havza u bilan aloqada bg'lmaydi yoki juda oz aloqada bg'ladi, shuning uchun ham suv neft chizig'i surilmaydi, suvning neftni siqib chiqarish

sharoiti mavjud bg'lmaydi. Aksariyat bunday rejimlarda neftning tepasida katta gaz uyumi mavjud. Neftning qovushqoqliga kichik, qatlam ichidagi g'tkazuvchanlik uyum chegarasida yaxshi. Ishlatish jarayonida neft uyumining hajmi kamayadi va bir qismini gaz egallaydi. Suv neft chegarasi g'zgarmay turaveradi.

Bunday holatlarda neft quduqlarining tezlikda gazga aylanib ketmasligi uchun ularning pastki qismi otiladi va chegaraga yaqin quduqlardan olinadigan mahsulot mikdori chegaralanadi.

Bunday sharoitda qazib chiqarish davom ettirilganda qatlam bosimi doimo kamayib boradi. Qatlamdan olinishi mumkin bg'lgan neft mikdori ancha bg'lishi mumkin, lekin bu holat uzoqqa chg'zilmaydi, chunki bu rejimda ishlatilganda qatlamning neft beruvchanlik qobiliyati 0,4-0,5 dan oshmaydi. SHuning uchun ham suv siquvi rejimi bilan bunda bir xil



10-rasm. Elastik suv siquvi tarzida qazib chiqaruvchi neft uyumi kg'rsatkichlarining g'zgarishi (belgilar 8-rasmdagidek).

balans zahiralariga ega bg'lgan uyumlardan olinadigan neft miqdori g'rtasida sezilarli farq bg'ladi. Bunday bg'lishiga sabab neft uyumining kg'p qismidan u siqib chiqarilmay qolib ketsa, ikkinchidan gazning neftni siqib chiqaruvchanlik xususiyati suvnikidan ozdir. Eri gan gaz mikdori ma'lum bir vaqtgacha g'zgarmas bg'ladi, lekin bosim tg'yinganlik chegarasiga etgach, gaz omili tez g'sib ketadi, olinayotgan neft miqdori kamayadi. Bunday holatlarda neft deyarlik suvsiz ishlatiladi.

Faqat gaz siquvi rejimidagi uyumlar kam uchraydi. Ular Ozarbayjon, G'arbiy Ukraina, Krasnodar g'lkalarida konlarda uchraganlar.


**Eri gan gaz rejimi** sharoitida qatlam bosimi tg'yinganlik bosimiga yaqin yoki teng bg'ladi, neftda erigan gazlar tezlik bilan pufaklar shaklida ajralib chiqa boshlaydilar va quduq tubiga harakat qila boshlaydilar. Ular g'z harakatlari jarayonida neft tomchilarini ham g'zları bilan ergashtiradilar va birga quduq tubiga oqib kela boshlaydilar.

Bunday rejim davomida uyumning qatlamini undan tashqari bilan deyarli bog'lanmagan, lekin uyumda erigan gaz miqdori kg'p. Ishlatish davomida uyum hajmi g'zgarmaydi, lekin kollektorlarning neftga shamilganlik darajasi kamaya boshlaydi. Quduqlarda qatlamning hamma qalinligi otilishi maqsadga muvofiqdir. Qazib chiqarish kg'rsatkichlari bu rejimda 10-rasmida kg'rsatilgan. Ishlatish jarayonida qatlam bosimi muttasil kamayadi. Gaz omili biroz g'zgarmas bg'lib, sg'ng keskin g'zgarib ketadi, chunki neftda erigan gazning tezlik bilan ajralib chiqishi kuzatiladi. Gazning ajralib chiqishi neft qovushqoq-ligining ortishiga olib keladi. Keyinchalik gaz omili keskin kamayishi mumkin. Umuman olganda ishlatish davomida gaz omili dastlabki gaz omilidan ancha (4-5 marta) yuqori ko'rsatkichga ega bg'ladi. Neft olinishi ikkinchi davrda g'zining yuqori nuqtasiga chiqadi va shu zahoti kamayishga boshlaydi. Umuman bunday neft suvsiz ishlatiladi. Bunday sharoitda har bir quduq atrofida depressiya voronkasi hosil bg'ladi, shuning uchun bunday sharoitda quduqlarni zichroq joylashtirish taqozo etiladi.

Neft beruvchanlik qobiliyati 0,2-0,3 atrofida, agar neftda eritan gazning miqdori oz bg'lsa 0,1-0,15 darajasida qoladi. Bunday konlarni

Ozarbayjon, SHimoliy Kavkaz, G'arbiy Ukraina, Saxalin, Emba kabi neft g'lkalarida uchratish mumkin.

**Gravitatsion rejim** - bunday sharoitda neft quduq tubiga g'zining og'irlilik kuchi tufayli oqib kelishi mumkin. Bunday holat qatlamda boshqa kuchlar mavjud bg'limganda namoyon bg'ladi. Bunday holat aksariyat erigan gaz tarzidan keyin namoyon bg'lishi mumkin. Qatlarning yotish qiyaligi ancha bg'lganda uning yuqori qismidan quyisiga neft oqib kelishi kuzatiladi. Bunday rejimda yliga dastlabki olinishi mumkin bg'lgan zahiraning 1-2% olinishi mumkin. Bunday holatda neft juda sekin harakat qiladi. Lekin boshqa rejim bilan birgalikda anchagina yaxshi natijalar berishi mumkin. Bunday rejimda ishlatilgan uyumlar sanoqli. Ular Ozarbayjon, Saxalinda mavjud.



11-rasm. Erigan gaz tarzida qazib chiqariladigan neft uyumi asosiy kg'rsatkichlarining g'zgarishi.

SHartli belgilari 9-rasmdagidek.

SHuni qayd etish lozimki, bosim pasayishi bilan qatlamdan olinayotgan mahsulot mutanosibligi ba'zi chekinishlarni e'tiborga olmaganda, aksariyat tg'g'ri chiziqligicha qolaveradi.

Bu rejimda ishlatilgan quduqlarning vaqt g'tishi bilan suv bosishi kuzatiladi, deyarlik hamma quduqlarda gaz bilan birga suv paydo bg'ladi, aksariyat uyum chegarasidagi quduqlar deyarlik suvga aylanadi. Kollektorning bir tekis bg'lmasliga sharoitida quduqlarni suv bosish sharoiti ham har xil kechadi. Ba'zan mahsuldor quduqlarni suv zabit etadi va er bag'rida kg'plab gazning qolib ketishi kuzatiladi. SHuning uchun ham bunday holatlarda qatlamning gaz beruvchanlik qobiliyati katta oraliqda bg'lishi mumkin, ya'ni 0,5-0,95 ni tashkil etadi.

**Aralashgan tabiiy rejimlar.** Tabiatda bitta rejimning mutlaqo namoyon bulish holati deyarli uchramaydi, chunki bosimning biroz kamayishi tufayli elastiklik kuchlari g'zini kg'rsatadi, ba'zi uyumlar ustida kattagina gaz uyumi mavjud bg'lib, u ham g'z kuchini kg'rsatadi. Demak, tabiiy rejimlar aksariyat bir nechta alohida rejimlarning u yoki bu darajada namoyon bg'lishi bilan ajralib turadi.

Aksariyat rejimlarning namoyon bg'lishlari qazib chiqarish boshlangach ozgina muddat g'tgandan keyin birin-ketin namoyon bg'la boshlaydi. Bunda qazib chiqarishning kg'rsatkichlari g'z "faoliyatlar" bilan u yoki bu rejimning "ahamiyatini" ifoda etadilar. Masalan, gaz kg'rsatkichi, qatlamdan olinayotgaya suvning mikdor g'zgarishi, bosim pasayishining sekinlashuvi shular jumlasidandir.

Ba'zi hollarda ikkita rejim baravariga g'z faoliyatini boshlaydi va uyum uchun ikkovining ham ahamiyati katta, shunday hollarda bu rejim albatta aralash deb atalishi lozim. CHunonchi, Farg'ona vodiysidagi Polvontosh neft konida (VII gorizont) suv siquvi rejimi bilan gaz bosimi rejimi bir vaqtning g'zida namoyon bg'lgan, keyinchalik gravitatsion kuchlar ham ish bergen, natijada qatlamning neft beruvchanlik qobiliyati yuqori darajaga etgan (0,78).

Aksariyat hollarda elastik suv siquvi bilan boshlangan uyum faoliyati ma'lum muddat g'tgach qatlam bosimi uning tg'yinganlik bosimiga tenglashgach, qatlamda gazlar ajralishi boshlanadi va rejim erigan gaz rejimiga qg'shilishib ketadi.

Natijada yana aralash rejim vujudga keladi. Bunday hollar Farg'ona vodiysidagi aksariyat neft konlariga xosdir. Unday holatlar

Boshqirdiston va Tatariston hamda G'arbiy Sibir konlariga ham xosdir.

**Uyumlar tabiiy rejnmini g'rganish.** Hozirgi vaqtida aksariyat neft konlari sun'iy ravishda qatlama suv haydash usuli bilan qazib chiqarilayapti. Bu usul shu kunda eng progressiv usul bg'lib, qatlamdan neft chiqarishlik imkoniyatini ma'lum bir miqdorga oshirish imkonini beradi. Undan tashqari bu usulni qg'llash natijasida er ostida ma'lum darajada tg'lmdirilmagan bg'shliq hosil bg'lishi va uning natijasida sodir bg'lishi mumkin bg'lgan arning chg'kishi hollarini oldini olish mumkin.

SHuning uchun ham neft uyumlarining rejimini bilish va shunga qarab ularning qazib chiqarish loyihalarini tuzish maqsadga muvofiqdir.

Aktiv suv bosimi rejimida unga kg'shimcha ravishda suv haydalmaydi, odatda, lekin boshqa holatlarda suv haydashni rejalashtirish yaxshi natijalarni bergenligining guvohimiz, bunga Volga-G'rol g'lkasida va boshqa erlarda ishlatilgan va ishlatilayotgan kg'plab neft konlari misol bg'la oladi.

SHuni qayd etish lozimki, uyumning qaysi rejimga mansubligi aksariyat uning qaysi havzadaligiga bog'liq. Ba'zi katta hajmdagi gidrodinamik havzalarning rejimi yaxshi g'rganilgan va undagi uyumning holatini umuman tasavvur qilish mumkin. Lekin kichikroq konlarning holati, ular bag'ridagi kollektorlar xususiyatlari va undagi neftning fizik xossalariга bog'liqligini inobatga olsak, qg'shimcha ma'lumotlar faqat g'sha konlarni razvedka qilish natijasidagina ma'lum bg'lishi aniq bg'ladi.

SHuning uchun ham aksariyat bunday havzalarda maxsus qazilgan pezometrik quduqlar mayjud bg'lib, ular havza rejimini g'rganishda va ularning xususiyatlarini alohida konlarga bog'lashda katta ahamiyat kasb etadilar.

Bunday holatlarda uyumdan tashqarida mavjud bg'lgan razvedka quduqlarining tadqiqot natijalarini ham tg'liq g'rganish va ulardan umumiy maqsad yg'lida foydalanish maqsadga muvofiqdir. SHuning uchun ham yangi uyumni o'rganish maqsadida qilinayotgan tadqiqotlar uning g'lcham-larini aniqlash, uning kollektorlari va ichidagi suyuqliklarning xossalardan tashqari, uning havzaning qaysi qismida joylashganligi, ta'minot oblastidan uzoq-yaqinligi, orada

qandaydir tg'siqlarning bor-yg'qligi, uyumning chegara tashqarisi bilan bog'liqlik darajasini bilishga qaratilgan bg'lishi lozim.

Undan tashqari, konni yaxshi g'rganish unda qazilgan dastlabki quduqlarni tajribali ishlatilgan va shu ma'lumotlarni puxta g'rganishdan boshlanadi. Bunday holatlarda bosimning biroz g'zgarishi, agar uyum g'z chegarasidan tashqari bilan yaxshi aloqada bg'lsa, tashqarida joylashgan quduqlarda namoyon bg'ladi yoki aksincha, bu g'zgarish g'rtacha aloqa yomon bg'lsa, yoki bg'lmasa, g'sha tashqaridagi quduqlarda sezilmaydi. Bunday holatlar qg'shni konlar g'rtasida ham kuzatilishi va natijalaridan unumli foydalanish mumkin.

Gaz konlarini ishlatish jarayonida aksariyat qatlamga suv haydash usuli qg'llanilmaydi. SHuning uchun ularni tadqiq qilish tajriba ishlatishi natijalari bilan bog'lanib ketadi. Elastik suv siquvi sharoitida gaz-suv chegarasining holati barcha sharoitlarni belgilaydi. Gaz rejimi bosimining kamayishiga tg'g'ri keladigan gaz miqdori kg'rsatkichi asosiy omil bg'lib, u konni qazib chiqarishning dastlabki davridan to oxirigacha g'zgarmas bg'lib qoladi va shunga qarab undan olinadigan gaz miqdorini boshqarish mumkin. Bunday sharoitda gaz-suv chizig'i g'zgarmas holatda qolishi kuzatiladi. Agar ma'lum miqdorda u chizikdan tashqaridagi quduqlarda bosim g'zgarsa, demak uyumdan olinayotgan mahsulot tufayli bosimning kamayishi ta'sir etgan buladi, demak bunda gaz rejimining elastik suv siquvi rejimi bilan aralash rejim mavjudligi namoyon bo'ladi.

## **6 - bob. NEFT-GAZ KONLARINI ISHLATISHNING GEOLOGIK ASOSLARI**

### **6.1. Loyihalash uchun geologik ma'lumotlar**

#### **Konni ishlash tartibi**

Har bir kon maxsus ilmiy-tekshirish tashkilotlari tomonidan tuzilgan loyiha asosida ishga tushiriladi. Bu loyiha xalq xg'jaligining

rivojlanishi bilan muqobil bg'lgan holda iqtisodiy taraqqiyot talablariga javob berishi lozim.

Konni ishlash tartibi deb neft, gaz, kondensat va ular bilan birga chiqadigan mahsulotlarni qazib chiqarishda bajariladigan texnologik va texnik jarayonlar majmuasiga va bu jarayonni boshqarishga aytildi.

Qazib chiqarilishi lozim bg'lgan qatlamlarning soniga, qalinligiga, turlariga hamda joylashgan chuqurligiga, gidrodinamik xususiyatlariga qarab geologik kesma miqyosida bir va bir nechta qazib chiqarish ob'ekti ajratiladi, qazish tartibi shuni taqazo etadi.

Konda ikki va undan ortiq ob'ekt mg'ljallanadigan bg'lsa ularni qazib chiqarishning oqilona turi tuzilgan holda, konni qazib chiqarishning butunligicha oqil turini tanlash maqsadga muvofiqdir.

Qazib chiqarishning oqilona nusxasi deb, xalq xg'jaligi rejalariga javob beradigan, hamda eng kam xarajat talab qilgan holda er bag'ridan eng ko'p mahsulot chiqarilish tartibiga aytildi. Albatta bunda tabiat va er bag'ri boyliklarini muhofazasi, tumaning sanoat va iqtisodiy xususiyatlari, qatlamning tabiiy imkoniyatlari va lozim bg'lsa sun'iy ta'sir etish usullarini qg'llash inobatga olinishi darkor.

SHuni alohida qayd etish lozimki, qirqinchi yillarning g'rtalaridan boshlab, ba'zi neft konlarida qatlamga suv haydash texnologiyasi ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Bular g'sha vaqtarda Boshqirdiston va Tatariston neft konlari: Tg'yamaha, Romashkino, SHkapovo, Bovli va boshqalarda boshlandi (g'sha vaqtarda Farg'ona vodiysidagi Xg'jaobod neft konining VIII gorizontida ham suv haydash qg'llangan edi), keyinchalik boshqa neft g'lkalarda ham qg'llanish kengaya boshladi. SHuni e'tiborga olish lozimki, suv haydash usuli bilan neft olinganda qazilgan umumiyl quduqlar soni oddiy usuldagiga nisbatan anchagina kam bg'lib, olinadigan natija miqdori ancha ortiqligi ma'lum bg'lgan edi. Bu usul ayniqsa qovushqoqligi kam neftlarda yaxshi natija beradi. Lekin kollektorlik xossalari notekis bg'lgan va nefti ham quyuq bg'lgan hollarda ham qo'llangan usuldan olingan natija oddiy usuldagidan ikki marta ortiq bg'ladi.

Keyingi vaqtarda dunyodagi neft qazib chiqaruvchi mamlakatlarda neft chiqarishda suv bostirishdan tashqari umuman yangi usullarni qg'llash ustida kg'plab ishlar olib borishmoqda. Bunda

asosan neftni qatlam kovaklaridan yuvib chiqarish jarayoniga mos keladigan yangi fizik-kimyoviy xossalarga ega bg'lgan suyuqliklar qg'llashga harakat qilinmoqda. Ular aksariyat qimmatga tushadi, lekin qatlamda qolib ketadigan neftning miqdori anchagina kamayishi e'tiborga loyikdir.

Gaz konlarini qazib chiqarishda esa hozirgacha qatlamning g'zidagi tabiiy quvvatdan foydalanish asosiy maqsad bg'lib qolmokda. Lekin gazkondensat konlarini qazib chiqarish ishlariga alohida e'tibor berish taqozo qilinadi, chunki qatlam bosimi gazning suyuqlikka aylanish nuqtasiga tenglashgan holatda retrograd hodisasi tufayli kondensat ajralishi va u qatlampagi quruq qumlarga singib ketishi sodir bg'lishi mumkin. Bunday holat kg'plab juda qimmatbaho mahsulot bg'lgan kondensatning yg'qolishiga sabab bg'lishi mumkin. SHuning uchun buning oldini olish hollarini iqtisodiy jihatdan asoslangan texnologiyagini hal qiladi va hamma e'tibor shunga qaratilishini taqozo etadi.

Uglevodorod konlarini qazib chiqarish tartibi asoslarini tanlashda texnologik holatni geologik nuqtai-nazardan asoslash kerak.

Buning uchun: 1) kg'p qatlamlari konlarda ishlatish ob'ektlarini ajratish; 2) qatlamni tabiiy rejimda qazib chiqarish yoki unga sun'iy ta'sir etish usullari qg'llanishi lozimligini aniqlash; 3) agar unga sun'iy usul qg'llanadigan bg'lsa, qg'llaniladigan usulning oqilona namunasining tuzilishini, oluvchi va haydovchi quduqlarning joylashish g'rirlarii belgilash; 4) quduqlar zichligini belgilash; 5) ishlatish ob'ektidagi bosim gradientini belgilash; 6) qazib chiqarish jarayonini boshqarish va nazorat qilish tadbiralarining yig'indisini ma'qullash taqozo etiladi.

YUqorida keltirilgan moddalar bg'yicha ishlatish ob'ektining geologik holatini aks ettiruvchi hukmlar qabul qilinishi lozim. Bunda bir modda bg'yicha qabul qilingan holat boshqasiga aynan tg'g'ri kelmasligi mumkin, shuning uchun unday hollarda bir-biriga yaqin bg'lgan bir nechta kg'rimishlardagi holatni tavsiya etiladi. Xuddi shu maqsad uchun ham mutaxassislar gidrodinamik hisoblarni bir necha kg'rimishda ifoda etadilar va shular orasidan oqilona natija kg'rsatuvchisi joriyga qabul qilinadi. Albatta bunda yillik texnologik va iqtisodiy kg'rsatkich-lar bizga oqil nusxani tanlashda omil vazifasini g'tashi darkor.

Bunday vazifalarni bajarishda mamlakatimiz konlarini qazib chiqarish tajribasini umumlashtirgan bir qator olimlarimizning tajribasi shuni kg'rsatadiki, qazib chiqarishning texnik-iqtisodiy kg'rsatkichlariga asosiy ta'sir qiluvchi omillar ob'ektlarning geologik xususiyatlari ekanligi aniq. SHu bilan birga qazib chiqarish tartibini belgilashda qg'lga kiritilgan yutuqlar ba'zan geologik holatlarda mavjud bg'lган kamchiliklarni ham tekislash imkonini berishi mumkin.

Ishlatish ob'ektlari va qazib chiqarishning oqilona namunalarini tuzish loyihalash iisharigacha tuzilgan xar bir uyumning geologik nusxasiga asoslanadi. Geologik nusxa esa bu sohada uyum uchun tuzilgan butun xarita va chizmalar, har xil kg'rsatkichlarni hamda ular orasidagi munosabatlarni bildiruvchi jadval va chizmalar, kg'rsatkichlardan tashkil topgan bg'ladi. Bular bilan birga uyumning xususiyatlarini kg'rsatuvchi ta'rif ham mavjud bg'lishi kerak.

CHizma ma'lumotlar orasida konning litologik - stratigrafik kesmasi, taqqoslashning mufassal sxemasi, ishlatish ob'ektining tektonik holatini kg'rsatuvchi struktura xaritasi uyumlarning chegarasi tushirilgan kollektor yuzasining xaritasi, neft-gazlar yotishini ifodalovchi ishlatish ob'ekti kesmasi, kollektoring taqsimlanish xaritasi umumiylar qalinlik xaritasi, samarali qalinlik xarita va neft hamda gaz bilan shimilgan qalinlik xarita bg'lishi shartdir. Undan tashqari suv neft va gaz-suv chegaralarini kg'rsatuvchi chizmalar, kollektoring tarqalish xaritasi, harorat xaritasi, g'tkazuvchanlik xaritasi va shu kabilar ham bg'lishi lozim.

G'ovaklik, g'tkazuvchanlik, neft-gazga tg'yinganlik kg'rsatkichlari, umumiylar neft-gazga shimilganlik qalinliklar, qatlampagi neft, gaz, kondensat va suvlarning xossalari raqam, hamda jadval kg'rinishida keltiriladi. Bularning hammasi qancha tadqiqot, nechta namuna asosida tuzilganligi albatta kg'rsatilishi shart, undan tashqari quduqlarning tadqiq soni ham shunga kiradi. Qatlamlarning notekisligi har xil ierarxik darajada: ob'ektning hamma qismi va umumiylar qalinliklari g'rganilayotgan mezo, makro va meta darajalarda baholanadi.

Raqamli kg'rsatkichlarga qatlama g'tkazuvchanligining statistik qatorlari, qatlama metalar va makro xilma-xilligi, (kollektorlar bg'yicha xilma-xillik, qumlilik koeffitsienti va sh.k.) termobarik

sharoitlar, qatlamdan siqib chiqarish sharoitining gidrodinamik natijalari va shu kabilar kiradi.

SHular qatori eng muhim raqamli kg'rsatkichlarga qatlamdan neft-gaz, kondensat zahiralari neftli maydon g'lchami (kengligi, uzunligi, balandligi) g'rtta darajada g'lchanuvchi sof neftli, neft-suvli, gaz-neftli, neft-gazli, gaz-suvli zonalar kg'rsatiladi.

Undan tashqari neft-gazlar fizik xossalaring bosim va haroratga bog'liqligini kg'rsatuvchi chizmalar, ularni siqib chiqarishligining g'tkazuvchanlikka munosabati kabi kg'rsatkich-lar keltiriladi.

Geologik namunaning ta'rifini yozishda esa, geologik rejimlarning ta'rifi va uyumning geologo-fizik tavsiotlari, qazib chiqarish tartibini kg'rsatish uchun qabul qilingan texnologik kg'rsatkich va ulardan qutilishi mumkin bg'lgan natijalar keltiriladi.

## **6.2. Neft va gaz-neft uyumlarini tabiiy rejimda ishga tushirish tartibi va ularni qo'llashning geologik sharoitlari**

Hozirgi vaqtida ba'zi neft konlarimiz g'zining tabiiy rejimida ishlatilmoqda, chunki unday konlarda sun'iy usul bilan qatlamga ta'sir qilishning lozimligi shart emas yoki g'sha ishlar uchun mavjud sharoit yg'q.

Undan tashqari qatlam sharoitida neftning qovushqoqligi 30-40 MPa\*s bg'lgan holatlarda unga suv haydashdan hech qanday naf sodir bg'lmaydi, chunki siqib chiqarish frontini tashkil qilish bunday hollarda mushkul. Yangi usullarni ham qg'llash g'z imkoniyatlariga ega bg'lib, ular ham har xil sharoitlarga mos kelavermasligi mumkin.

**CHekka suvlar siquvidan foydalangan holda neft uyumini qazib chiqarish tartibi.** Bunday holat suv siquvi yoki aktiv elastik suv siquvi rejimlariga xosdir. Bunday holatlarda quduqlar faqat neftli zonada qaziladi va ularning neft chegara chizig'iga parallel holda xalqa shaklida joylashtiriladi. Bunda ba'zan quduqlarning neft bilan ishslash muddatini uzaytirish uchun quduqlar orasidagi masofadan qatorlar orasidagi masofani kattaroq qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Undan tashqari xuddi yuqorida keltirilgan maqsadni kg'zda tutib, tashqari qatorda joylashgan quduqlarning yuqori qismi otiladi, qolgan quduqlarda esa qatlamning hamma qalinligi otilishi maqsadga muvofiqdir.

Bunday holatlarda quduqlarga sekin asta suv kelishi tabiiy hol, chunkn vaqt g'tishi bilan uyumning g'lchovi kichrayadi, suv-neft chegarasi kesma bg'yicha yuqoriga kg'tariladi. Navbat bilan tashqi qatordaga quduqlarni suv bosadi, sg'ng suv undan keyingi qatorlarga g'tadi va h.k.

**Ostki suvlar siquvchi kuchidan foydalangan holda neft uyumini qazib chiqarish tartibi.** Bunday holat massiv uyumlarni qazib chiqarishda kuzatiladi, chunki unda butun kon miqyosida uyum suvda suzib yuradi. Bunday ahvol suv siquivi va elastik suv siquivi rejimlarida uchrayveradi. Bunday holatlarda uyumning g'lchovi kichrayaveradi, suv-neft chegarasi doimo kg'tariladi, bir xil belgili joylarni g'z vaqtiga kelib suv bosadi. Qatlam qalinligi bir necha g'n metrga ega bg'lgan hollarda quduqlarni bir tekis joylanib, ularning qatlam bilan munosabati (otilgan qismi) suv-neft chegarasidan bir necha metr yuqoridan belgilangan bg'ladi.

Ba'zan karbonat kollektorlari mavjud buladigan hollarda (qatlamning qalinligi 200-300 m ni tashkil etganda) quduqlarni markazga qarab joylashishi zichlashtiriladi (bunda albatta bizga quduqqa tg'g'ri keladigan neft miqdorini inobatga olish lozim bg'ladi). Bunday hollarda quduqning qaysi qismini qatlam bilan bog'lash mumkinligi masalasi qatlam sharoitidagi neftning qovushqoqligiga bog'liq bg'ladi. Qatlam g'tkazuvchanligini yuqori va neft qovushqoqligi kam bg'lganda quduqning qatlam rg'parasidagi yuqori qismini otish maqsadga muvofikdir, chunki qatlamning pastki qismidagi neft bunday sharoitda baribir suv bilan siqib chiqariladi. Agar neftning qovushqoqligi yuqori va qatlamning g'tkazuvchanligi notejis bg'lsa, bunday hollarda qazib chiqarish jarayonini qatlamning qalinligiga qarab bir tekisda va galma-gal pastdan yuqoriga qarab olib borish tavsiya etnladi.

**Neftdan ajralib chiqadigan gaz quvvatini ishlatishga mo'ljallangan qazib chiqarish tartibi** sharoitida ishlatish ob'ekti quduqlar bilan bir tekis qaziladi va quduqlarda qatlam butun qalinligi bg'yicha otiladi.

**Qatlam suvlari va gaz quvvatlarini ishlatalishga qaratilgan qazib chiqarish tartibi.** Bunday holatni aralash rejim deb baholanadi va shunga qarab ish tutish lozim. Eng muhimi bu ikki holatdagi quvvatdan tg'g'ri foydalana bilihdir. SHuning uchun qatlamning neftli qismi oluvchi quduqlar bilan bir tekis qazishnadi, lekin suvli zonaga yaqin joylashgan quduqlarning yuqori qismi, gazli zonaga yaqin quduqlarning pastkn qismi otiladi, bunday holat quduqlarning tezda suv bosishi yoki gazga aylanishining oldini oladi. Suv gazga nisbatan yuvishlik xususiyatiga kg'proq ega bg'lganlign uchun gaz qalpog'ining tezligda kengayib ketishini oldini olish taqozo etiladi. Bu masalalarni A.V.Afanaseva g'z ishlarida kg'rsatgan va natija 7-jadvalda keltirilgan.

Neft uyumining hajmi gazga nisbatan ancha kg'p bg'lgan hollarda hamda suv siquivinnng kuchi etarli bg'lganda gaz qalpoqining kuchi faqat ancha qiya bg'lgai qatlamlarda namoyon bg'lishi mumkin. Bunday hollarda suv va gaz konuslari hosil bg'lishi mumkinligi va ular ishlatalish sharoitlarini ancha murakkablashtirishi mumkinligini e'tibordan chetda qoldir-maslik kerak.

7-jadval.

Suv va gazning kirishi natijasida olikadigan neft mikdori

V <sub>1</sub> /V <sub>2</sub>	Q <sub>c</sub>	Q <sub>2</sub>
3/1	74,3	15,5
1/3	51,2	38,5
1/7	33,5	56,5

Qatlam siquvi kuchlarini ishlatalgan holda gaz-neft chegarasini siljitmay qazib chiqarish tartibi. Bunday holat qatlamdan neft oluvchanlik qobiliyatini oshirish maqsadida qilinadi va uning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. YUqorida aytganimizdek gaz bilan neftning siqib chiqarilishi uncha foydali emas, shuning uchun bu chiziqni g'zgarmas holda qoldirish maqsadida hisoblarga qarab

ma'lum miqdor gaz gazli quduqlaridan olinib turadi. Bunda gaz qalpog'ining hajmi g'zgarmay turaveradi va bosim kamayishi hisobiga neft suv chegarasi yuqoriga qarab surilaveradi. Bunday sharoitda ham quduqdar tubiga gaz yoki suvning yorib, kirishini kuzatish mumkin, shuning uchun ularni otishda bg'lishi mumkin holatlarni inobatga olishni taqozo etadi.

Bunday holat ya'ni gaz qalpoq quvvatini neytrallashtirish usuli qatlam sharoitidagi neftning kam qovushqoqligi, neft uyumining gazga nisbatan anchagina kattaligi qayd etilganda, qatlamning g'tkazuvchanlik xususiyati yuqori bg'lgan hollarda juda yaxshi natijalar beradi.


Krasnodar g'lkasidagi IV Anastasievsко-Troitskiy koni, Volgagrad o'lkasidan Korobkovskiy konidaga Bobrikov gorizontlarini ishlatish xuddi shu usulda olib borilganligi ma'lum.

### 6.3. Har xil geologik sharoitlarda suv bostirish usuli

Neft va gaz neft konlarini qazib chiqarishda suv bostirish usulini qg'llash sharoitga qarab uning har xil kg'rinishlarini ishlab chiqishni taqozo etgan (11-rasm).

Нефт объектларини казиб чиқаришда кўлланадиган сув хайдаш усуллари

12- расм



Suv bostirishning qg'llangan birinchi usuli neft-suv chizig'idan tashqari usul bg'lib, bunda suv haydovchi quduqlar chegara chizig'idan 3-5 km, tashqarida joylashgan bg'lib, qatlamga suv haydaladi va u uyumga oqib kelishi mg'ljallanadi. Bu usulning uyum g'lchami katta bg'lganda va qatlam tuzilishi xilma-xil bg'lganda unga naf bermasligi keyinchalik ayon bg'ldi. Suv bostirishning keyingi bosqichida neft-suv chizig'i oldi suv bostirish boshlandi, bunda suv haydovchi quduqlar chegara chizig'inинг yonginasida. (200-500m) joylashtirishi kg'zda tutilgan.

50- yillarning boshida Romashkino konida dunyoda birinchi marta qatlam ichida suv bostirish usuli qg'llandi. Bunda kon joylashgan maydoning juda kattaligi inobatga olinib, uni 23 ta (keyin 26 maydongacha etkazilgan) kichikroq maydonchalarga suv haydovchi quduqlar qatori yordamida sun'iy ravishda bg'lingan va har bir maydon alohida qazib chiqarish ob'ekti sifatida ishlatilgan. Qatlamga suv haydash usullari hozirgi kunning eng ilg'or usuli bg'lganligi va uning manfaatini inobatga olib biz bu usulga keyinchalik mufassal tg'xtaymiz.

## **7-bob. NEFT UYUMLARINI CHIQARISHDAGI YANGI USULLAR VA ULARNI QG'LLASHNING GEOLOGIK SHAROITLARI**

Hozirgi kunda qatlamga suv haydashdan tubdan farq qiladigan va qatlamdan neft olishni oshirishga qaratilgan usullarni yangi usullar deyish odat bo'lgan. AQSH da bu usullarning hammasini uchlamchi usullar deb ataladi. Bu usullar suv haydash usuli etaricha samara bermagan va qatlamda uning tuzilishi murakkabligi yoki undagi suyuqliklarning nomaqbul xossalari tufayli kg'plab neft qolib ketayotgan hollarda qg'llanadi va bu usullarning qg'llanishi er bag'rida abadiy qolib ketishga mahkum bg'lgan neftning bir qismini olishga, shuning bilan qatlamning neft beruvchanlik qobiliyatini bir pog'onaga kg'tarishga qaratilgandir.

90-yillarda AQSHda olinayotgan neftning 10 % ga yaqini ya'ni, taxminan 40 mln t.ga yaqin neft ushbu usullar yordamida amalga oshirilganligi ma'lum. Bu kg'rsatkich anchagina yuqoriligi ahamiyatga molikdir.

Qatlamdan olinadigan neftni oshirishga qaratilgan bu usullarni shartli ravishda quyidagicha turkumlarga bg'lish mumkin: 1) fizik-kimyoviy usullar neftni siqib chiqarish har xil kimyoviy reagentlar eritmalar (polimerlar, sirtaktiv moddalar, kislotalar, ishqorlar), mitsillyar eritmalar va sh.k.; 2) issiqlik-fizika usullari - qatlamga har xil issiqlik beruvchi moddalar haydash (issiq suv, bug' va sh.k.); 3) issiqlik kimyo usullari - qatlam ichida neftni yonishini ta'minlovchi usullar (jumladan oksidlar va ishqorlar ishtrokida); 4) neft bilan aralashishi mumkin bg'lgan eritmalar va yuqori bosim ostidagi uglevodorodlar bilan neftni siqib chiqarish usuli.

YUqorida keltirilgan usullar har xil g'ziga xos sharoitlarda qg'llanishi va g'sha sharoitlarga qarab natija berishi mumkin. Undan tashqari keltirilgan usullar aksariyat tajribaxonalarda qilingan tadqiqotlarga asoslangan bg'lib, bunda olingan natijalar tabiiy sharoitdagidan ancha yuqori bg'lishi mumkin. Undan tashqari ularning ma'lum sharoitlarda qg'llanish har xil kg'rinishlarda hali tg'laligicha tadqiq etilmaganligi va ba'zi reagentlarning qimmatligi tufayli bular hamma tomondan puxta g'rganishni va hozircha ular tavsiya sifatida qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir.

Kimyoviy reagentlardan foydalangan holda suv haydash- bir guruh usullar mahsuldor qatlamga kimyoviy reagentlarning 0,02-0,2 % mikdorida haydaladi. Bunda g'ovaklik hajmining 10-30 % qadar haydalib, qolgan qismi suv bilan suriladi. Bunda ma'lum hajmdagi eritmalni suyuqlik qatlamning bir qismdan ikkinchi qismiga surilib boradi, chunki uning orqasidan oddiy suv bilan siqib boriladi. Bu usullarni mayjud quduqlar majmuasi bilan amalga oshirish mumkin.

SHunday eritmalar yordamida qatlamdagi, ancha quyuuq bg'lgan neftlarga (50-60 MPa\*s ) ta'sir g'tkazish mumkin. Bunday usulni qatlamni qazib chiqarishning dastlabki davrla-rida qg'llansa oddiy suv haydash usuliga nisbatan neft beruvchanlikni 3-10 % ga orttirish mumkin. Quyida uning alohida turlarini kg'ramiz.

## **7.1. Polimerlarning suvdagi eritmasi bilan neftni siqib chiqarish**

Bunda asosan poliakrilamidning (PAA) neytrallangan ohakli eritmasi qg'llanadi. Ma'lumki suvga PAAning qg'shilishi uning qovushqoqligini orttiradi, natijada neftning suvga nisbiy qovushqoqligi kamayib, suvning siqib chiqaruvchi xususiyati ortadi, shunday holatda siqib chiqarish fronti barqarorligi ortadi va kg'proq neftni siqib chiqarish imkonи paydo bg'ladi. Bunday usulni yuqori qovushqoqlikka ega bg'lgan neftlarda qg'llash ( $10-50 \text{ MPa}^*\text{s}$ ) maqsadga muvofiqdir. Suvlarning qovushqoqligi ortishi natijasida suv haydovchi quduqlarning qabul qiluvchanlik xususiyati ancha kamayishini hisobga olib, bunday usulni yaxshi g'tkazuvchan qobiliyatga ega kollektorlarda ( $0,1 \text{ mkm}^2$  dan ortiq), asosan g'ovaklik turdagи kollektorlarda qg'llash maqsadga muvofiqdir. SHuni e'tiborga olish lozimki, filtratsiya jarayonida polimerlarning bir qismi g'ovaklar devorida qolib ketadi. SHuning uchun suvga tg'yiganlik 8-10 % dan ortiq bg'lмаган va oz miqdorda gillar mavjud kollektorlarda hamda harorati  $70-80^{\circ}\text{S}$  bg'lgan sharoitda bu usulni qg'llash maqsadga muvofikdir (harorat kg'rsatkichi xususida fikr yg'q, ba'zilar bu kg'rsatkichni boshqacha beradilar).

Sirt aktiv moddalar (SAM) eritmasi bilan neftni siqib chiqarish. Aksariyat OP-10 turli ionogen bg'lмаган SAM eritmasidan shu maqsadlar uchun foydalaniladi. SAMning suvga qg'shilishi uning yuvuvchanlik xususiyatini oshiradi, natijada suvning neft bilan chegarada sirt tarangligi kamayadi. Bu usul suvga tg'yiganlik 15 % gacha bg'lgan hamda qatlamdagi neftning qovushqoqligi  $5-30 \text{ MPa}^*\text{s}$ , qatlamning g'tkazuvchanlik xususiyati  $0,03-0,04 \text{ mkm}^2$  va harorati  $70^{\circ}\text{S}$  gacha bg'lgan hollarda tatbiq etish tavsiya etiladi.

Bu usulning beradigan natijasi neft beruvchanlikni 3-5 % oshirishga qodirligidir.

Mitsillyar eritmalar bilan neftni siqib chiqarish. Avvalo mitsillyar eritmalarining tarkibi xususida. U engil uglevodorodlar, chuchuk suv, sirt aktiv moddalar, spirit aralashmasidan hosil qilingan moddadir. Eritma mikroemul-siyadan iborat bg'lib, unda suv molekulalari, uglevodorod va SAM molekulalari tiniq eritma hosil qiladi. Uni neftni siqib chiqarish uchun qg'llanganda taxminan

g'ovaklikning 10 % miqdorida mitsillyar eritma qatlamga qg'yiladi, uning ketidan uni qatlam bg'yicha surib yurish uchun bufer eritmasi - polimerli eritma qg'yiladi va sg'ngra suv kuchi bilan eritma suriladi. Natijada mitsellyar eritma qatlamdagi mavjud neftlarni g'zida eritib boraveradi. Ma'lum muddatdan sg'ng oluvchi quduqlar yordamida mitsellyar eritma yuqoriga chiqariladi va undan neft ajratib olinadi. Bu usul bilan ilgari ishlatib bg'lingan konlarni yana qayta jonlantirish imkonи tug'iladi. Buning uchun 0,1 mkm<sup>2</sup> dan ortiqroq g'tkazuvchanlikka ega bg'lgan terrigen kollektor tanlanadi. Albatta qatlamda mavjud qoldiq neftning miqdori 25-30 % dan kam bg'lmasligi lozim, chunki bu usul g'zini oqlamasligi mumkin. Qatlamdagi neftning qovushqoqligi 3-20 MPa\*s atrofida bg'lsa maqsadga muvofiq-dir, qatlam harorati 70-90°C bg'lsa yaxshiroq. AQSHning Illinoys shtatidagi tajriba uchastkalarida olingan natijalar kelajakka katta umid bag'ishlaydi. Lekin hozirgi kunda keng qg'llanilayotganligining sababi usulning iqtisodiy jihatdan ancha qimmatligidir. Bu usulni takomillashtirish ustida AQSH, Kanada, Angliya, Frantsiya, GFRda hamda Rossiyada tajriba ishlari olib borilmoqda.

Issiqlik-fizika usullari bunda asosan issiqlik yuqoridan qatlamga issiq suv yoki bug' yordamida olib kelinadi.

Neftni bug' bilan siqib chiqarish - yuqori qovushqoqlikka ega bg'lgan (40-50 MPa\*S dan ortiq) va oddiy suv haydash usullari bilan chiqarib bg'lmaydigan neftlarda qg'llaniladi. Bu usul birinchi marta g'tmishdagi Sovet Ittifoqida tavsiya etilgan va amalda sinab kg'rilgan bug'lib, unda qatlam hajmining 20-30 % miqdorida bug' xaydalib, ketishidan suv yordamida qatlam bg'yicha surilishi ta'minlanadi. Bu usulning qg'llanishi oxirgi neft beruvchanlikni 0,4-0,6 ga chiqarishga erishuviga olib keladi.

Usulning asosiy ta'sir kuchi shundaki, u neftning qovushqoqligini keskin kamaytiradi, shunda asosan neft tarkibidagi parafin va asfaltenlar erib neft harakati osonlashadi. Bunday usul qatlam g'tkazuvchanlik xususiyati 0,5 mkm<sup>2</sup> dan yuqori bg'lganda hamda aksariyat g'ovakli tog' jinslarida (g'ovakligi 0,2) yaxshi natijalar beradi. Qatlamga yuboriladigan issiqlikning kg'p qismi quduq tanasida yg'olib ketmasligi uchun bu usul qg'llanadigan qatlamning er ostidagi chuqurligi 1000 m dan oshmasligi maqsadga muvofiqdir,

qatlamning qalinligi esa 10-40 m atrofida bg'lsa yaxshiroq, bundan kam bg'lga hollarda issiqlikning yg'qolishi kg'payib, usulning natijasi susayadi. Yana shuni qayd etish lozimki, bu usulni qatlamning neftga shimilganlik koeffitsienti yuqori kg'rsatkichga ega bg'lga hollarda qg'llash tavsiya etshgadi.

Undan tashqari gillik kg'p bg'lga hollarda uning issiq bug'dan bg'kishi va g'ovaklik ham g'tkazuvchanlikni keskin kamaytirish mumkinligini inobatga olib, bunday usulni tanlashda qatlamning gilligi 10 % dan kam bg'lga holatlar tavsiya etiladi. Agar qatlam bir xil jinslardan tashkil topgan bg'lsa juda maqsadga muvofiq bg'ladi va yaxshi natija olinadi. Boshqa hollarda natijaning kg'rsatkichi unchalik bg'lmasligi mumkin. Quduqlarning orasi 200-300 m bg'lga bu usulning natijasi yaxshi bg'ladi.

Neftni issiq suv bilan siqib chiqarish - bu usul aksariyat ma'lum bir haroratda qatlama parafin g'tirib qolishi mumkin bg'lga sharoitda qg'llanadi. Bunda albatta qatlamga haydaladigan suvning harorati qatlam haroratidan yuqori bg'lishi va g'sha g'tirgan parafinlarni eritib, neftning harakat yg'lini ochishi darkor. Bu usulning foydasi bug' haydaganligidan ancha kam, undan tashqari yaxshi natija olish uchun qatlam g'ovakligi hajmidan 3-4 marta ortiq hajmda issiq suv haydash lozim bg'ladi. Qatlamda bu usulni tatbiq etish sharoitlari avvalgi usuldag'i sharoitlarga mos keladi.

Termokimyoiy usullar - neftning qatlam sharoitida "yonishi" tufayli paydo bg'ladi dan qg'shimcha quvvatdan foydalanishga asoslangan.

Bu usulning ikki xil kg'rinishi mavjud. Birinchisi "quruq" yonish deb ataladi. Bunda quduq tubiga havo yuborilib, uning bag'ridan neft yoqiladi va havo doimiy ravishda quduqqaga yuborib turishi natijasida yonish ma'lum yg'nalish bg'yicha bir front bg'lab davom etaveradi va shunday qilib neftni olishi lozim bg'lga quduqlar tomon harakat bg'laveradi. Buni doimo uzluksiz davom ettirish uchun kg'p miqdorda havo haydash lozim bg'ladi.

Ikkinci usul namlik sharoitida yonish deb ataladi. Bunda qatlamga havo bilan birga ma'lum nisbatda suv yuboriladi. Bunda yonish jarayoni sodir bg'ladi dan zonaning oldida issiq suv harakatga keltiriladi. Bu usulda havoning ishlatalish miqyosi ham ancha kamayadi hamda issiq suv g'zining yuvuvchanlik va erituvchanlik

xususiyatlari bilan jarayoning foydasini oshiradi. Bu usullarning samaradorligini oshirish uchun ularning qg'llanishi chuqurligi 1500-2000m dan ortmasligi, qatlamning g'tkazuvchanliga 0,1 mkm<sup>2</sup> dan kam bg'lmasligi va qg'llanishi lozim bg'lgan qatlamning neftga shimalganlik darajasi 30-35 % dan kam bg'lmasligi taqozo etiladi. Neftning qovushqoqligi har qancha bg'lishi mumkin (10-1000 MPa\*S va undan ortiq).

Qatlamning qalinligi 3-4 m dan kam bg'lmasligi lozim, ba'zi mutaxassislarining fikricha, g'rtacha g'tkazuvchanlik mavjud bg'lgan sharoitida uning qg'llanishi 70-80m gacha muvaffaqiyatli bg'lishi mumkin. SHuni e'tiborga olish kerakki yonish tufayli uning ta'sirida oz g'tkazuvchanlikka ega qatlamchalar ham undan ta'sirlanishi va yaxshi natijalar berishi mumkin.

YOnish tufayli 700°S va undan ortiq harorat hosil bg'lishini inobatga olib, uni faqat terrigen kollektorlarda qg'llash tavsiya etiladi, chunki karbonatlar bu haroratda parchalanish va g'z tuzilishini keskin g'zgartirishi mumkin. Namlik bilan olib borilgan yoqishda harorat 400-500° S va hatto 200-300°S orasida bg'lishi mumkin. Bu usulni karbonat tog' jinslarida qg'layversa bg'ladi. Bu usulni har qanday quduqlar joylashishi sharoitida qg'llayverish mumkin, namli yonish sharoitida kattagina masofani qamrab olganda, demak har bir quduqqa 16-20 ga tg'g'ri kelganda ham foydali bg'ladi.

Aralashuvchi siqib chiqarish usullari - bularga neftni siqib chiqarish jarayonida SO<sub>2</sub> suyultirilgan uglevodorod gazi (asosan, propan bilan), metanning S<sub>2</sub>-S<sub>6</sub> komponentlari boyitilgan aralashmasi hamda quruq gaz bilan (asosan metan) aralashishi natijasida hosil bg'ladicagi sharoitdan foydala-nish kg'zda tutiladi.

YUqorida sanalgan har bir usul g'z sharoitlariga ega bg'lib, u qatlamdagi suyuqliklarning fazali holatiga bog'liq bg'lgan sharoitlarga bog'liq.

Quruq gazning neft bilan aralashish holati yuqori bosim ostida sodir bg'lishi mumkinligini inobatga olib, u usulni qatlam bosimi 20 Mpa dan ortiq sharoitda qg'llash tavsiya etiladi, Boyitilgan gaz bilan aralashish 10-20 Mpa sharoitda sodir bg'lishi mumkin, suyultirilgan gaz va karbonat angidridni qg'llash 8-14 MPa sharoitda bajarilishi mumkin. Demak, bu usullarni 1000-1200 va undan ortiq chuqurlikda joylashgan qatlamlarga tatbiq etaversa bg'ladi. Bu usullarni qg'llagan

vaqtimizda qatlamdagi neftning qovushqoqligi anchagina kam bg'lganligi (5MPa\*S gacha) va uning qalinligi ham kichikroq bg'lganda (10 -15m dak kam) maqsadga muvofiq bg'lib, yaxshi natija kutsa bg'ladi. Bu usullarni iloji boricha g'tkazuvchanlik past bg'lgan qatamlarda qg'llash maqsadga muvofiqli, chunki boshqa hamma sharoitlari g'xhash bg'lib, g'tkazuvchanligi g'rtacha bulgan qatamlarda suv haydash usuli ham yaxshi natija beraveradi.

Platforma tumanlariga mansub konlarda ularning g'lchami aksariyat katta bo'ladi, quduqlarni har xil holatda joylashtirish mumkin, chunonchi neftli zonada qatorlar bilan suvli neftli yoki gaz-neftli zonalarda bir tekis tg'r bilan quduqlarni joylashtirish mumkin. Bir tekis joylashtirilgan asosiy fond quduqlari kvadrat yoki burchak shaklida joylashtirilishi mumkin.

Uchburchak shaklidagi bir tekis joylashish quduqlarni qatorlar bilan joylashtirilganda yoki uyumlarni bg'laklarga bg'lganda hamda etti nuqtali maydonda suv bostirish hollarida uchratamiz.

Kvadrat tg'r esa besh nuqtali va tg'qqiz nuqtali suv bostirish hamda tanlangan suv bostirish usulida qg'llaniladi.

G'zgaruvchan bir tekis quduq joylashuvi aksariyat shaxmat tartibida bajarilib, u uyumni bir tekis ishlatalishga va chegaralarini me'yorda surilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Quduqlar asosiy fondini joylashtirishda har bir quduqda tg'g'ri keladigan maydon - quduqlar zichligi katta ahamiyatga molik kg'rsatkichdir. Bu asosan  $S_{as}$  (ga/qud.) kg'rinishida ifodalanadi.

Kvadrat shakldagi joylashtirishda  $S_{as}=1_k^2$  ( $1_k$ - quduqlar orasidagi masofa, m), uchburchak shakldagi joylashtirishda esa  $S_{ac}=1_k^2/1,075$  ga teng.  $S_{as}$  kg'rsatkich qatlamni suv bostirishda xar hil kg'rsatkichga ega bg'lishi mumkin, bunda mahsulot oluvchi quduqlar maydoni  $S_{ac}$  va suv haydovchi quduqlarga  $S_{ac.x}$  ajralishi mumkin, hamda ba'zan bularning har ikkovini ham qamrashi mumkin. O'zgaruvchan bir tekis tg'r quyidagicha ifodalanadi:

$$1_{q.o} \cdot 1_{qat.o} \cdot 1_{qat.x} \cdot 1_{qx..}$$

bu erda:  $1_{q.o}$  - mahsulot oluvchi quduqlar orasidagi masofa, m;  $1_{qat.o}$  - mahsulot oluvchi qatorlar orasi, m;  $1_{qat.h}$  - suv haydovchi va birinchi tashqi qator orasidagi masofa, m;  $1_{q.h}$  - haydovchi quduqlar orasidagi masofa, m.

Aksariyat haydovchi va oluvchi quduqlar orasidagi masofa bir xil bg'lganda bu kg'rsatkich  $1_q \times 1_{qat} \times 1_k$  kg'rinishida bg'ladi.

G'zgaruvchan bir tekis tg'rda quduq maydoni  $S_{as}=1_{q.o.} \cdot 1_{qat.o.}$  asosiy oluvchi quduqlar va qatorlar orasidagi masofadan tashkil topgan bo'ladi. Hamma tomonlarni inobatga olib, tanlangan quduq zichligi - eng muvofiq zichlik deb ataladi.

Qazib chiqarish jarayonlari tajribasi shuni kg'rsatadiki, kam mahsuldor qatlamlarda asosiy quduq fondini bir tekis joylashtirish zichroq bg'lishi maqsadga muvofiqdir. Taxminan bu kg'rsatkich quyidagi kg'rinishlarda ifodalanishi mumkin; quduqlar zichligi 100-42 ga/q (900x1000 m dan to 600x700 m gacha) - eng yaxshi kg'rsatkichli uyumlar uchun, bunda qatlam sharoitidagi neftning qovushqoqligi birdan kam, uning g'tkazuvchanlik xususiyati yuqori hamda mahsuldor qatlamning qalinligi katta (asosan yoriqli karbonat kollektorlar va massiv uyumlar) bg'lgan holat.

Quduqlar zichligi 40-30 ga/q (600x650m dan 500x600m gacha) asosan qatlam turidagi uyumlarda ularning neftlari kam qovushqoqlikka ega bg'lganda (1-5) va g'tkazuvchanligi nisbatan yaxshi bg'lganda (0,3-0,4 mkm<sup>2</sup>) va qatlam holati nisbatan bir tekis bg'lgan paytlarda shu zichlik ma'qul keladi.

Quduklar zichligi 28-16 ga/q (500x500m dan 400x400 m gacha) bg'lgan zichlik nisbatan notejis bg'lgan va qovushqoqligi 4-5 dan 15-20 gacha bg'lgan neftlarda va yuqori g'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bg'lgan hollarda qg'l keladi.

Quduqlar 16 ga/q dan kam zichlik (400x400m) notejis tuzilishga ega bg'lgan yuqori qovushqoqlik nefti bg'lgan (25-30) va olinadigan mahsulotni suv konuslari hosil bg'lishidan saqlash maqsadida chegaralash sharoitlari talab qilingan hollarda qg'llanadi.

Demak, tajribadagi holatlarni inobatga olib yuqorida keltirilgan quduqlar zichligini 4 kg'rinishini quyidagicha nomlash joiz: juda siyrak, siyrak g'rtacha zichlikdagi va zich tg'r.

Quduqlar tg'rini tanlashda uyumning yotish chuqurligi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda albatta yuzaroqda joylashgan ob'ekt bilan xuddi shu holatdagi chuqurda joylashgan ob'ektning quduqlar bilan qazilish zichligi bir xil bg'lishi aslo shart emas, bunda iqtisodiy kg'rsatkich g'z hukmini g'tkazadi, lekin shuni e'tibordan xoli qilib bg'lmaydiki, ayni shu sababdan ham chuqurroq ob'ektlarning neft beruvchanlik qobiliyatini ancha past bg'lishi muqarrar.

Quduqlar zichligiga ularning maydoniga tg'g'ri keladigan neft zaxiralari kg'rsatkichi ham ta'sir g'tkazadi. Albatta zahiralar miqdori kamaygai sari quduqlar zichligi ham siyraklashadi. YUqorida keltirganimiz geologik sabablardan tashqari quduqlar zichligiga texnologik kg'rsatkichlar va bosim gradientining ta'siri ham mavjud.

Rezerv fondi quduqlarini qazish notekis tg'r hosil bg'lishining asosiy manbaidir, bu hol qatlamning juda notekisligidan kelib chiqadi.

YUqorida kg'rsatilgan uyumni tg'r bilan qazish ishlari qazib chiqarish tartibi nuqtai-nazaridan quyidagicha kg'rinishlarni g'z ichiga oladi: 1) qazib chiqarish ob'ektida qazilgan umumiylar quduqlar fondi tashkil qilgan tg'r zichligi; 2) ob'ektda qazilgan quduqlar zichligi; 3) ob'ektning qazilish chegarasida qazilgan umumiylar quduqlar fondining g'rtacha zichligi; 4) neft olinadigan zonadagi oluvchi quduqlar zichligi.

Albatta bu kg'rsatkichlar har xil ob'ektlarda va holatlarda turlichadir.

Har bir quduqqa tg'g'ri keladigan solishtirma maydon tushunchasidan tashqari har bir quduqqa tg'g'ri keladigan solishtirma zahira tushunchasi ham mavjud. Bunda albatta haydovchi quduqlarnnng mavjudliga ham inobatga olinadi.

SHuni e'tiborga olib, konlarni qazib chiqarishning boy tajribasiga asoslangan holda ilmiy loyihalash muassasalari bu ishlarni tahlil qilishda har bir quduqqa tg'g'ri keladigan zahira mikdorini kamaytirish yg'lla-rini topishga erishishlari lozim. Bunday ish ishlatiladigan ab'ektlarning to'g'ri bo'linganligini belgilash va lozim bg'lganda ob'ektga quduqlar sonini oshirish hisobiga amalgam shiriladi.

SHuni e'tibordan qochirmaslik lozimki, eng muvofiq quduqlar tg'ini tavsiya etishda kam mahsuldor qatlamlarga qazilishi lozim bg'lga quduqlar sonini va ulardan olinishi mumkin bg'lga neft miqdorini iqtisodiy jihatdan taqqoslash juda muhimdir, aksincha kam mahsuldor g'lkalarda katta kapital mablag' sarf bg'lib, undan keladigan manfaat oz bg'lib qolishi mumkin, Bunday hollarda xarajatlarni kamaytirish va qazib chiqarish natijasini manfaatdor qiladigan omillarni axtarish va oqilona ishlatish taqozo etiladi.

#### **9.4 Ishlatilayotgan ob'ektda bosim farqi**

Neft konlarini qazib chiqarish sur'ati aksariyat bosim farqi (gradienti)  $\Delta R$ , ya'ni qatlam bosimi bilan quduq bosimi orasidagi farqqa bog'liqdir;

$$\Delta R = \Delta R / L, \quad \Delta R = R_{qat} - r_{qud}$$

Butun uyum miqyosida esa bu kg'rsatkichlar ta'minot chegarasidagi bosim bilan uyum bosimi g'rtasidagi farqdir. L- esa g'sha chegara uyum orasidagi masofa, agar qatlamda suv haydash jarayoni mavjud bg'lsa, haydovchi quduqlar qatori ta'minot manbai bg'lib xizmat qiladi.

Bosim farqi miqdorini orttirish uchun quyidagi shartlarni bajarish lozim bg'ladi: L ning miqdorini kamaytirish, haydovchi quduqlardagi bosimni orttirish, oluvchi quduqlardagi bosimni kamaytirish.

Haydovchi quduqlardagi bosim suv haydash jarayonida dastlabki qatlam bosimidan 10-20 % ortiq bg'lishini ta'minlash kg'p yillik tajribadan kelib chiqib taqozo qilingan kg'rsatkichdir. Bu holat qatlamdan olinishi lozim bg'lgan neftni kg'paytirish bilan birga, butun uyumni ta'sir doirasiga qamrab olish imkonini beradi. Bunday holatni haydovchi quduqlar og'zidagi haydash bosimi bilan amalga oshiriladi. Haydash bosimini oshirilishi natijasida kg'rila-digan manfaatli natijani Romashkino konnning  $D_1$  qatlami misolida kg'rish mumkin. Bu erda dastlab haydovchi quduqlar ustida bosim 10 MPa ga teng edi, sg'ngra u kg'rsatkichni 15-16 MPa ga kg'tarishdi, natijada g'sha vaqtdagi bosim qatlamdagi dastlabki bosimdan ortib ketdi va 20 MPa ga etdi. Bunday natijaga erishishlik haydovchi quduqlarning qabul qiluvchaliqi 3-4 marta ortganligi hisobiga erishildi. Undan tashqari suv qabul qiluvchi qatlamning qalinligi ham 2 marta oshganli-gini qayd etmoq darkor. Demak natija ba'zi kichik qatlamchalarga ham ta'sir etib borganligini va suv ta'sir doirasining ancha oshganligidadir.

TatNITLIning 1960-1975 yilning ma'lumotlariga qaraganda qatlamga suv haydash bosimining orttirilganligi tufayli kapital va ishlatalish xarajatlari hisobiga erishilgan iqtisodning miqdori 800 mln. sg'mni tashkil etgan. Bundan kg'rinaliki, haydash bosimini orttirish unchalik kg'p xarajat talab qilmaydi va yaxshi natijalar beradi.

SHunga qaramasdan haydash bosimini oshirishning ham g'z chegarasi bor. Bunda bosim ortiqligi tufayli suv bilan qatlamni yorish hollari sodir bg'lib, uning natijasida suvning bevaqt va befoyda oluvchi quduqlar tubiga etib borishi tezlashishi mumkin. Undan tashqari bunday hollarda suv-neftli zonaga yg'nalmasdan suvli zonaga osonroq g'tib ketishi ham mumkin, yana bosimi kamroq bg'lgan qatlamlarga ham oqib g'tishi mumkin. Keltirilgan misollar pirovard natijada suv haydash usuli foydasini kamaytirishi va kg'ngilsiz oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Oluvchi quduqlardagi bosimni kamaytirishning usullari-dan biri ularni ishlatishni mexanizatsiya usullariga g'tkazishdir. Kamroq mahsuldarlikka ega bg'lgan quduqlarni dastlabki kunidan boshlab mexanizatsiya usuliga g'tkazish maqsadga muvofiqdir. G'rtacha va undan yuqori maxsuldor quduqlarni esa avvaliga favvora usulida ishlatib, ular mahsulotidagi suv miqdori keskin kg'paygach, ularni ham mexaniklashgan usulga g'tkazish maqsadga muvofiqdir (shunday quduqlarni kg'rsatilgan usulga g'tishini 1956 yilda A.P.Krilov ilmiy asoslab bergen).

Quduq tubi bosimini kamaytirish samaralarini ham Romashkino konining D<sub>1</sub> qatlami misolida kg'rishimiz mumkin. Bu qatlam quduqlarida favvora suvsiz quduqlarda 11,5MPa da tg'xtaydi, quduqlarni suv bostirish natijasida bu bosim 16MPa gacha etadi. Favvora vaqtidagi g'rtacha bosim 12,5 -13 MPa ni tashkil etadi.

Neftning gaz bilan tg'yinganlik bosmi 9MPani tashkil etadi. Mexanik ishlatish usuliga g'tishning chegarasi 3,5- 4MPani tashkil etishi mumkin. SHu kg'rsatkichlarni inobatga olib TatNITLI ning 20 yilga qilgan hisobi shuni kg'rsatadi-ki, bu ishlarni qg'llash natijasida olingan qg'shimcha neft miqdori umumiy olingan neft miqdorining 10-11% ni tashkil qilgan.

Quduqlar tubidagi bosimni kamaytirishni davom ettirishda mavjud quduqlarning ish uslubini inobatga olish darkor, agar mexanizatsiyalashgan usulga g'tiladigan bg'lsa, hamma quduqlarni shu usulga g'tkazish lozimligini, aks holda qg'llanayotgan ishda yaxshi naijiga ega bo'lmay qolish hollari sodir bg'lishini E.D.Muxarskiy tadqiqotlari kg'rsatib berdi. Ba'zi quduqlar favvora holatida ishlaganda, qolganlari mexanizatsiyalashgan usulga g'tsa,

favvora quduqlarining mahsul-dorligi keskin kamayishini kg'rsatadi, natijada ob'ektida erishshishi mumkin bo'lgan o'sishga putur etadi.

Notekis tuzilishga ega bg'lgan qatlama quduq tubi bosimini kamaytirish kichikroq g'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bg'lgan qatlamlarni ham ishga tushib ketishiga imkon beradi. SHu bilan harakat tezligining ortishi natijasida qatlama bevaqt suv tortilishi ham biroz chegaralanishi mumkin, chunki hamma qatlamchalardagi neft harakatga kelganligi shunga olib keladi. Iqtisodiy jihatdan qatlama bosimini suv haydash usuli xisobiga oshirishga nisbatan quduqlar tubidagi bosimni kamaytirish kamroq foyda beradi, chunki barcha quduqlarni mexanizatsiyalashgan usulga g'tkazish qg'shimcha xarajatlarni talab qiladigan jarayondir.

SHuni ham e'tibordan xoli qilmaslik darkorki, quduq tubidagi bosimni qatlama gazga tg'yinganlik bosimidan 15-25 % miqdorgacha kamaytirish tavsiya etiladi. Bundan kg'proq pasaytirilganda qatlama erigan gaz tarziga g'tib, natijada uning neft beruvchanlik kg'rsatkichi kamayib ketishi va ancha-muncha neft qatlama qolib ketishiga olib kelishi mumkin. Undan tashqari quduq tubidagi bosimni ortiqcha pasaytirish uning tubida qatlama emirilishi kuzatilishi va keraksiz konus hosil bg'lishiga olib kelishi mumkin.

Ta'minot zonasidagi va oluvchi quduqlar tubidagi bosimlar farqi har bir ob'ekt uchun maxsus hisoblar orqali bajarilishi lozimdir. Bunda albatta yig'ilgan tajriba va geologik xususiyatlar g'z aksini topmog'i maqsadga muvofiqli. Qatlamlarning kam mahsuldarligi holatida bosim gradientini oshirish lozim bg'ladi va shu yo'l bilan kerakli mahsulot olinishi ta'minlanadi.

## **10-bob. NEFT VA GAZ KONLARINI ISHLATISHNI NAZORAT QILISH**

### **10.1. Neft konlarini ishlatishda quduqlar fondi va ular ishini nazorat qilish**

Qazib chiqarish jarayoni tartibining asosiy qismi quduqlardan iborat bg'lib, ular uyumning bag'ridagi uglevodorodlarni yuqoriga chiqarishning asosiy yg'lidi, Undan tashqari quduqlarni tahlil qilish,

nazorat natijasida qatlamda kechadigan jarayonlarni kuzatish, hamda tartibga solish mumkin. Konda quduqlar g'zining belgilari bilan har xil turkumlarga bg'linadilar, bular g'z vazifasiga binoan, qazilish navbatiga qarab, ishlatish usullari bg'yicha, hozirgi holatiga qarab, ishga tushirilgan vaqtiga qarab ularni ajratish mumkin.

Quduqlar fondining har qanday g'zgarishlari kon hisobotining kvartal kg'rsatkichlariga kiritilib, g'shanda nazorat va tahlil qilinadi. Biz quyida quduqlar fondinnng kg'rinishlariga tushuncha berishga harakat qilamiz. Umuman olganda neft-gaz sanoati miqyosida quduqlar quyidagicha bg'linadilar.

**Oluvchi quduqlar** - bular eng kg'p sonli quduqlar bg'lib, neft-gaz va yg'ldosh mahsulotni chiqarishga mg'ljallangandir-lar.

**Haydovchi quduqlar** - bular qazib chiqarishning samardorligini oshirish maqsadida qatlamga suv, gaz, bug', havo va shu kabilarni haydash vazifasini g'taydilar. Qatlamni yoqish qg'llanganda ular yoquvchanlik vazifasinn ham g'taydilar.

**Maxsus quduqlar** - g'z nomi bilan qatlam - kon kg'rsatkichlarini g'rganish va tadqiq qilish uchun maxsus vazifa-larni bajaruvchi quduqlardir. Ularning g'rganish natijalari qatlamni qazib chiqarishga tayyorlashda, qazib chiqarish jarayonida nazorat qilishda asqotadi. Ularni asosan ikki turkumga bg'lish mumkin: 1) - baholovchi quduqlar; 2) nazorat qiluvchi quduklardir.

Baholovchi quduqlar - maxsus texnologiya bilan konni g'rganishning har xil bosqichlarida qaziladi va undan maxsus namunalar olinadi, natijada geofizik tadqiqotlar bilan neftgazga tg'yinganlik foizini yoki qoldiq neftga tg'yinganlik darajasini baholash maqsadida foydalilaniladi.

Nazoratchi quduqlar - esa qatlamda qazib chiqarish jarayonida bo'layotgan g'zgarishlarni nazorat qilish uchun xizmat qiladilar. Bu pezometrik va kuzatuvchi quduqlarga bg'linadilar.

Pezometrik quduqlar asosan uyumning tashqarisidagi suvli zonada qazilgan bg'lib, undagi bosimlarning g'zgarish holatlarini har xil usul bilan g'rganish va natijalaridan ilmiy tahlilda foydalanish maqsadida ishlatalidi. Neftli zonadagi ba'zi suv bosgan quduqlardan ham pezometrik quduq sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Kuzatuvchi quduqlar neftni suv-gaz bilan siqib chiqarish jarayonida neft-suv, suv-gaz, gaz-neft chegaralarining haraka-tini

(ularning surilishlarini) kuzatuvchi quduqlardir. Bunday quduqlar uyum ichida qaziladi. Gaz konlari kuzatuvchi quduq-larda qatlam bosimi ham doimo g'lchab boriladi. Bunday quduqlar g'z vazifasiga binoan jihozlanadi va shunga qarab ularda kuzatish ishlari olib boriladi. CHunonchi, neft quduqlarida ishlatish kolonnasini otmasdan foydalaniladi, natijada bunday quduqda neytron usullarining samaradorli-gini oshirishga imkon tug'iladi va neft-gaz-suvga shamilganlik darajasini g'rganish qulaylashadi.

Undan tashqari oluvchi quduqlar orasida ham kuzatuvchi quduqlarni belgilash mumkin. Buning uchun qazib chiqariladigan qatlam rg'parasidan shu quduq tubi ochiladi va boshqa ob'ektlar uchun g'sha quduq nazoratchi quduq, shu ob'ekt uchun esa oluvchi quduq vazifasini utayverishi mumkin. Undan tashqari gaz konlari anchagacha tg'xtatib qg'yiladigan quduqlardan kuzatuvchi quduqlar sifatida foydalanish mumkin.

Maxsus quduqlar fondi qisman g'z vazifasini bajargan quduqlar hisobiga bajariladi, chunonchi pezometrik quduqlar razvedka maqsadida qazilgan bg'lib, ular uyumning chetida qolgan hollarda uni shu maqsadga g'tkaziladi. Lekin baholovchi quduqlar maxsus qaziladi.

Yordamchi quduqlar konda asosan suv olish va suv haydash maqsadida ishlatiladigan quduqlardir, Ba'zan yuqori bosimli g'rtalikdagi suv qatlamlardan qazib chiqarilayotgan ob'ektga suv haydash uchun suv olinadi va shunday hollarda bu quduq ishga tushiriladi. Undan tashqari neft bilan birgalikda olinadigan kg'plab miqdordagi yg'ldosh suvni bosimini pastroq qatlamlarga haydash uchun ham quduqlar kerak bg'ladi. Bunday quduqlar aksariyat g'z vazifasini bajargan quduqlarda amalga oshiriladi.

### **10.1.1. Turli navbat bilan qaziluvchi quduqlar**

Dastlab qatlarni razvedka qilish maqsadida quduqlar qaziladi. Sg'ng ulardan aksariyat oluvchi va ba'zan haydovchi quduqlar sifatida foydalanadilar. Uncha katta bg'lman neftkonlarida dastlabki 1-2 yil davomida tajriba ishlatilishi amalga oshiriladi. Natijada uyumni qazib chiqarish uchun zarur ma'lumotlar qg'lga kiritiladi. SHu sababdan uyumning har xil joylaridan bir qancha quduqlar qaziladi va

keyinchalik ular uyumni ishatish uchun qaziluvchi quduqlar tg'ri orasiga singib ketadi. Bunday quduqlar ilgarilagan oluvchi quduqlar deb ataladi. Bunday quduqlarni ishlatish natijasida qatlamning ishlash rejimi, mahsuldorligi, qabul qiluvchanligi, kollektorlarning barqarorligi, quduqlarning suv bosish holati kabi ma'lumotlarga ega bg'linadi.

Agar konning g'lchamlari katta bg'lib, tajribali ishlatish imkoniyati bg'lman hollarda uning eng ahamiyatga molik bir qismi tajriba uchun ishlatishga ajratiladi va unda oluvchi hamda haydovchi quduqlar tg'g'ri haqiqiy ishga tushirish sharoitidagidek bajariladi hamda shu qismni qazib chiqarish tajribasiga tayangan holda konning butunlay qazib chiqarish loyihasi tuziladi. Bunda ham ma'lum bir qism quduqlar ilgarilangan holda qaziladi va ishga tushiriladi.

Keyingi ishlar texnologik sxema va loyiha asosida olib boriladi.

Birinchi galda asosiy fond quduqlari qaziladi, ular loyiha bg'yicha qabul qilingan tg'r va qatorlar asosida bajariladi. Sg'ngra notekisliklarga va g'zgaruvchanlikka qarab qg'shimcha fondga mg'ljallangan quduqlar qaziladi. Natijada quduqlarning joylashishi notekis holatga keladi.

Keskin mezo va makro xilma-xillikda hamda qatlam har xil diz'yunktiv uzilmalar bilan murakkablashgan sharoitlarda quduqlarni bir yg'la burg'ulash maqsadga muvofiq emas. Agar "ma'lumdan noma'lumga" degan tushunchaga asoslangan holda ish olib borilsa, natijasiz quduqlarning soni keskin kamayishiga erishiladi. Undan tashqari quduqlarni eng chuqur belgigacha qazib qatlamlarni sinaladi. Agar pastki qatlam "quruq" yoki neftsiz bg'ladigan bg'lsa, uni qatlamdan ajratib, yuqoridagi qatlamni sinashga g'tiladi. Bunday holat kesma bg'yicha davom etsa, nihoyat "texnika nazorati" tavsiyasiga binoan "g'z vazifasini bajargan" quduq sifatida berkitiladi.

Gaz konlarini qazish boshqacharoq amalga oshiriladi. Kichikroq konlarda uni razvedka qilish uchun qazilgan quduqlar soni undan olinishi lozim bg'lgan mahsulotni ta'minlay oladigan quduqlar sonidan ortib ketgan holatlar ham bg'ladi. G'rtacha va katta konlarni qazishni amalga oshirishda esa, razvedka tugagach asosiy fond quduqlari qaziladi va ulardan lozim bg'lgan mahsulot olina boshlanadi. Ma'lum muddat g'tgach, qatlam bosimi pasayib, mahsulot

miqdori kamaygach, uni avvalgi darajaga etkazish uchun qg'shimcha quduqlar qazishnadi.

### **10.1.2. Quduq fondi g'zgarishlarini hisoblash va nazorat qilish**

Ishlab turgan kon ishlatish ob'ektining umumiy quduqdar fondi doimo g'zgarishda va harakatda bg'ladi, ayniqsa, bu holat konni ishlatishning bosqichlariga bog'langanda yaqqol kg'zga tashlanadi. CHunonchi I va II bosqichlarda oluvchi quduqdarning umumiy soni doimo g'sishi kuzatiladi. III-IV davrlarda esa aksincha, kamayish kuzatiladi, haydovchi quduqlar soni suv haydash jarayoni rivojlangan sari shunga qarab ortib boradi, chunonchi, chegara ichi suv haydash usuli qg'llanganda haydovchi quduqlarning bir qismi dastlabki davrda oluvchi quduq sifatida foydalilanilgan bg'lishi mumkin. Haydovchi quduqlar bilan uyumlarni bg'lган vaqtida ham ularning har ikkikchisini vaqtincha oluvchi quduqlar sifatida ishlatiladi, bunda g'sha quduqning ta'sir doirasini neftdan "tozalab" suv haydashga tayyorlanadi. Bu quduqlarda olishni jadallashtirish yonidan turib haydalayotgan suvning kelishiga, shu tariqa "kesish chizig'i" hosil qilishga imkon beradi. Sg'ngra yonidagi quduqdar-ni ham suv bosgach ularni ham haydovchi quduqlar hisobiga g'tkazib, suv haydash davom ettiriladi. Undan tashqari haydash jarayonning ta'sir kuchini saqlash va samarasini oshirish maqsadida ba'zi suv bosgan oluvchi quduqlarni ham haydovchi quduqlarga aylantiriladi.

Quduqdar holati xam doimo g'zgarishda, ular ishlab turgandan tashqari, ba'zan ta'mirlash ishlari uchun ham va boshqa sabablar binoan turib qoladi.

Quduqlarning holatini hisobga olish uchun ishlatila-digan ob'ekt bg'yicha har kvartal oxirida "quduqdar fondi" deb ataladigan hisobot tuziladi. Bunda kvartal oxirida mavjud barcha quduqlar faoliyati aks ettiriladi. Bunday hisobotning tg'rtinchi kvartaldagisi yillik faoliyatni yakunlaydi, hisobot neft va gaz quduqdari uchun alohida ijro etiladi. Hisobotda ishlatiladigan fond va boshqa quduqlar turkumi alohida ajratib kg'rsatiladi.

Ishlatiladigan fond umumny fondning asosiy qismi bg'lib, unda ishlab turgan, tg'xtab turgan hamda mahsulot olish uchun qazilgan va sinovda turgan quduqlar kg'rsatilgan bg'ladi.

Harakatdagi quduqlar hisobiga shu kvartal oxirgi oyida ishlagan quduqlar kiradi:

1) agar quduq shu kvartalda bir kun bg'lsa ham ishlagan bg'lsa, hatto vaqtı-vaqtı bilan ishlaydigan quduqlar quduqni tg'latish uchun qg'yilgan bg'lsa ham;

2) shu kvartal davomida ozgina mahsulot bergen bg'lib, hozirgi kunda ta'mirlash maqsadida va boshqa sabab bilan tugatilgan quduqdar.

Ishlamayotgan quduqlar hisobiga shu kvartalda hech ishlamagan quduqlar kiradi:

1) shu hisobot yilnda ishdan tg'xtatilgan quduqlar;

2) o'tgan yillari ishdan tg'xtatilgan quduqla.

Sinovchi quduqlarga sinovni kutayotgan va burg'ulash ishlari tugatilgan hamda boshqa quduqlar fondidan ishlatish maqsadlari uchun g'tkazishga mg'ljallangan quduqlar kiradi.

Boshqa turkum quduqlarga vaxtincha ishlamayotgan, tugatidishni kutayotgan, ishlatishdan yoki qazishdan sg'ng tugatilgan quduqlar kiradi. Vaqtincha ishlamaydigan quduqlar - ular ba'zi sabablarga kura hech kanday ishga jalb qilinmay-dilar va ma'lum vaqtdan sg'ng u yoki bu ishga mo'ljallansa va tushirilsa, shunda g'shalar qatoriga qg'shib qg'yiladi.

8-jadval.

#### "Quduqlar fondi" hisobotining kg'rinishi

Tartib №	Fond tarkibi	Quduqlar soni
1.	Ishlatiladigan fond. Neft-(gaz)beruvchi	
2.	Hisobot kvartalining oxirgi oyida to'xtatilgan oluvchi quduq	
3.	Jumladan tuzatishda turgan quduqlar	

4.	Harakatdagi quduqlar jami (1+2)	
5.	Hisobot yilda ishdan to'xtagan quduqlar	
6.	O'tgan yillari ishdan chiqqan quduqlar	
7.	Jumladan ta'mirlashda turganlari	
8.	Harakatdan to'xtaganlar jami (5+6)	
9.	Sinovdagi va uni kutayotgan quduqlar	
10.	SHuning ichida sinash olib borayotganlari	
11.	Butun ishlatiladigan fond (4+8+9)	
12.	Haydovchi quduqlar	
13.	Jumladan ishlab turganlari	
14.	Maxsus quduqlar	
15.	Texnik suvlar olish uchun qazilgan quduqlar	
16.	Yo'ldosh suvni qo'yish uchun qazilgan quduqlar	
17.	Vaqtincha to'xtatilgan quduqlar	
18.	Tugatishga mo'ljallangan quduqlar	
19.	Ishlatishdan so'ng tugatilgan quduqlar	
20.	Burg'ulashdan so'ng tugatilgan quduqlar	

Tugatilishni kutib turgsh quduqlar aksariyat hujatlarni tayyorlash uchun kutib yotgan bg'ladi. Tugatilgan quduqlar esa g'z vazifalarini bajarib bg'lганлар va shuning uchun tugatilgandirlar. Ishlatishdan sg'ng tugatilgan quduqlar boshqa maqsadlarga xizmat qilishi mumkin, lekin burg'ulashdan so'ng tg'xtatilgan yoki texnik sabablarga binoan tugatilgan quduqdarni biror maqsadda ishlatib bg'lmaydi.

### 10.1.3. Ishga tushirilish vaqtি har xil bo'lган quduqlar

Quduqlarni ishlatilganda fond hisobidan ishga tushirilganda ularni eski quduqlar va yangi quduqlar turkumiga ajratiladi.

Eski quduqdar turkumiga avvalgi yillari ishga tushirilgan quduqlar kiradi. Bularni ham ikkiga ajratish mumkin, birinchisi avvalgi yillari ishlab turgan va hozirgi kunda ham ishlayotgan

quduqlar, ikkinchisi esa-avvallari ishlagan va ta'mirlash hamda boshqa maqsadlar bilan tg'xtatilgan va shu yil boshida ishlamayotgan quduqlar hisobiga. kirgan quduqlardir. Ular yil davomida ishga tushirilgandir-lar.

Yangi quduqlar hisobiga burg'ulashdan sg'ng yoki boshqa fondlardan ishlatish fondiga birinchi marta g'tkazilayotgan quduqlar kiradi.

Yil davomida quduqlar, garchi boshqa fond hisobiga ishlab turgan bg'lsalar ham, bir fonddan ikkinchisiga g'tkazilmaydi, bunday ishlar faqat yilning oxirida bajariladi.

## **10.2. Neft, gaz va yg'ldosh suvni chiqarish**

### **10.2.1. Ishltladigan ob'ektda chiqarilayotgan neft, gaz, suvning g'zgarishi (dinamikasi)**

Qazib olinayotgan ob'ektning asosiy kg'rsatkichlari undan olinayotgan neft, suv, gaz va umuman suyuqliklarning joriy kg'rsatkichlari hamda ularning jamlangan kg'rsatkichlaridan iboratdir. Qazib chiqarilayotgan ob'ektning ishlatilish jarayonidagi g'zgarishlarini qazib chiqarish kg'rsatkichlarining dinamikasi deb ataladi. Bunday kg'rsatkichlarni olinishi mumkin bg'lgan zahiralarga va neft beruvchanlik koeffitsien-tiga nisbati nuqtai-nazardan tahlil qilinadi va ishlatilish ob'ektlari turkuminiig qazib chiqarish tajribasi umumlashti-riladi hamda bu ishlarni bajarishda aksariyat yillik kg'rsatkichlardan foydalaniladi (neft, suv, suyuqlik ming t., gaz-mln.m<sup>3</sup>).

Qazib chiqarishning asosiy kg'rsatkichlari absolyut g'lchamlarda kg'rsatiladi. Ba'zan qazib chiqarish sur'atini yaxshiroq kg'rsatish uchun, uni qazib chiqarilishi lozim bg'lgan neft miqdoriga nisbatan % hisobida berilishi mumkin, xuddi shu kabi ob'ektdan olinayotgan suvning miqdorini chamalash uchun ham uni zahiralarga nisbatan % hisobida kg'rsatiladi. Ba'zan yillik qazib chiqarishning sur'atini chamalash maqsadida qoldiq zahiraga nisbatan % kg'rinishida ham ifoda qilinadi.

Neft bilan birga olinadigan suv miqdori esa kg'pincha qatlamdan olingan suyuqlikka nisbatan % kg'rinishida beriladi.

Qazib chiqarish jarayonining boshidan boshlab olingan neft(gaz) miqdori jamlangan holda uning dastlabki zahirala-riga nisbatining % sifatida kg'rsatiladi. Agar bu kg'rsatkich balans zahiralariqa nisbatan olinsa, g'sha kg'rsatkich joriy neft beruvchanlikni kg'rsatuvchi son bg'lib qoladi va shu hisob vaqtiga qatlamdan mahsulot olinganlik darajasini belgilaydi.

SHu kg'rsatkichlarning g'zgarishini ob'ektini qazib chiqarish bosqichlariga qarab tahlil qilinsa, maqsadga muvofiq bg'ladi.

Ma'lumki, neft konining qazib chiqarish jarayoni tg'rt bosqichdan iboratdir. Qatlam (uyum) razvedka qilingach ishga tushadi va uning birinchi bosqichini boshdan kechiradi.


Birinchi bosqichda asosan ob'ekt oluvchi quduqlar bilan qaziladi va ishga tushiriladi. SHuning uchun ham bunda asosan mahsulot olish ortib boradi. SHu davrda qatlamga ta'sir kg'rsatish tadbirlarini qg'llash masalalarini ham kg'rib chiqish darkor. Bu bosqichning davomiyligi uyumning g'lchamlariga bog'liq bg'ladi.

Ikkinci bosqichda uyumdan olinayotgan mahsulot miqdori g'zining eng yuqori kg'rsatkichga ega bg'ladi, zahiralarni chiqarish sur'ati ham eng yuqori bg'ladi, chunki bu davrda barcha asosiy fond quduqlari ishga tushirilgan, qg'shimcha fond quduqlarining ham bir qismi ishga tushirilgan, qatlamga ta'sir etish vositalari rivojlantiriladi va qazib chiqarish jarayonini boshqarish va tartibga solish choralarini kg'rish taqozo etiladi.

Uchinchi bosqichda - qatlamdan olinadigan mahsulot miqdori kamayadi, chunki qatlam zahiralaringanchagina qismi olingan, kamayishni pasaytirish maqsadida qg'shimcha quduqlar qazish hamda qatlamga, ta'sir vositalarini takomillashtirish maqsadida qg'shimcha tadbirlar qilish ishlari bajariladi, oluvchi quduqlarda suv bosishni kamaytirish maqsadida izolyatsiya ishlari olib boriladi. Qatlamda neft siqib chiqarish ishlarini yaxshilash maqsadida undan olinadigan mahsulotni jadallashtirish va qatlamni ishlatish jarayonida boshqarishning takomillashgan usullari tavsiya etiladi.

To'rtinchi bosqichda qazib chiqarish jarayoni nihoyasiga etadi. Bu davrda mahsulot olish sur'ati juda pasayib ketadi, lekin aksariyat hollarda bu davrda ham qatlamda anchagina neft mavjudligi aniq bg'ladi.

SHuning uchun ukdan olinadigan mahsulotni oshirish choralari kg'riladi, qatlamni yuvish jarayonlari takomillashti-riladi, unga ta'sir etishning yangi usullari qg'llanadi. Bu davr ba'zan ancha muddatga chg'zilib ketishi mumkin.



16-рasm. Ishlatiladigan ob'ektda mahsulot chiqarishning bosqichlari.

Bosqichlar orasidagi chegara taxminan quydagicha aniqlanadi. Ikkinci bosqichga maksimal chiqarishdan 10 % farq qiladigan darajada mahsulot olingan yillar kiritiladi, ikkinchi va uchinchi bosqichlar orasidagi chegara maksimal olinishdan 10 % kam bg'lgan mahsulot olingan yildan keyingi uchinchi bosqichning boshlanishi hisoblanadi. Uchinchi va tg'rtinchi bosqichlar orasidagi chegara mahsulot chiqarish sur'ata, 2 % ni tashkil qilgan vaqtidan boshlab tg'rtinchi bosqichga taaluqli deb hisoblanadi. Adabiyotlarda bosqichlar-ning birinchi va ikkinchisini olinadigan mahsulotning g'sish hamda uchinchi va tg'rtinchisini uning pasayish davri deb ham yuritiladi. Mahsulotning asosiy qismi 1-2-3- bosqichlarda olib bg'linadi, degan tushuncha ham mavjud, lekin tg'rtinchi, ya'ni yakunlovchi bosqichda ham uzoq yil davomida salmoqli neft miqdori olingaligi tajribadan ma'lum.

Qazib chiqarish asosiy kg'rsatkichlarining g'zgarishi qatlamning geologik sharoitlariga hamda qg'llagan texnologiya-ning

mahkammalligi hamda qazib chiqarish tartibining samaradorligiga bog'liq.

### **10.2.2. Neft chiqarish**

Birinchi bosqichda neft chiqarish sur'ati doimo ortib boradi, lekin uning muddati uyumning katta-kichikligiga bog'liq bg'lib, burg'ulash jarayonini olib borish sharoitiga ham qaraydi. Ba'zan mahsulot olishni jadallashtirish lozim bg'lganda burg'ulashni tezlashtirib yuborish ham mumkin bg'ladi. Umuman olganda birinchi bosqich bir yildan 7-8 yilgacha davom etishi mumkin.

Ikkinci bosqichda mahsulot olishning eng yuqori sur'ati saqlanib, oxiri borib u biroz pasayishga boshlaydi. Eng yuqori sur'atning muddati va darajasi ob'ektning geologik hususiyatlariga va mahsulotniig fizik xossalriga bog'liq bg'lib, M.M.Ivanovaning ma'lumotiga qaraganda yillik miqdor olinishi mumkin bg'lgan zahiraning 3-4% dan 16-20% gachani tashkil etishi mumkin. Albatta qatlamning yuqori mahsuldarlik holatida bu yuqori sur'at ancha-muncha vaqt davom etishi mumkin. Qatlamning kamroq g'tkazuvchanligi va suyuqlikning anchagina qovushqoqligi mavjud bg'lgan hollarda qazib chiqarish tartibining oqilligi va qg'llangan texnologiya-ning mukammalligi tufayli ham mahsulot olishni anchagina kg'tarish va ma'lum muddat ushlab turishga erishish mumkin bg'ladi. Umuman olganda bu kg'rsatkichlar ob'ektning g'lchamla-riga bog'liq bg'lib, katta uyumlarni jadal qazib ulgurish ba'zan qiyin bg'lib qoladi. Bunda birinchi va ikkinchi bosqichlar bir-biri bilan uyg'unlashib ketadi. Bunda qatlamni bir tomonidan qazishib ishga tushirilaveradi va bu jarayon qatlamning ikkinchi tomoniga qarab siljib boraveradi. Ma'lum vaqt ichida avvalgi maydondagi quduqlarni ma'lum darajada suv bosib ularni mahsuldarligi kamaya boradi, lekin keyingi maydonda esa buning aksi bo'ladi yangi-yangi quduqlar ishga tushirilgan va mahsulot olish ortib boradi. SHuning uchun ham birinchi bosqichda yuqori mahsulot olishni ta'minlovchni ishlarni bajarishga harakat qilish lozim bg'ladi.

Ikkinci bosqichning davomiyligi har xil sharoit va ahvolga qarab 2 yildan 8-10 yilgacha davom etishi mumkin. Ikkinci

bosqichning kam vaqt bg'lishiga sabablardan biri yuqori qovushqoqlig neftlarni chiqarish bilan bog'langandir. Bunda 7-8% ni tashkil qiladigan olish ta'minlanadi, lekin tezlikda bu sur'at pasayadi, chunki neftning yopishqoqligi sabab, qatlamni jadal suv bosishga boshlaydi.

YUqori g'tkazgichli qatlamlarda olishni ancha yuqori kg'rsatkichga erishilganligi tufayli, uni uzoq ushlab turish mumkin emas. Ikkinchis bosqich poyoniga kelganda, aksariyat olinishi mumkin bg'lgan zahira miqdori suyuqliklarning nisbiy qovushqoqligiga bog'liq bg'ladi. M.M.Ivanova ma'lumot-lariga qaraganda, qovushqoqligi beshdan kam bg'lgan suyuqlikda g'sha vaqtgacha olinishi mumkin bg'lgan neftning 50% olinadi, agar qovushqoqlik undan ortiq bg'lгanda esa 35% neft olingan bg'ladi.

SHuni unutmasligimiz kerakki, ikkiyachi bosqich poyoniga kelib neft olishning pasayishini kamaytirish uchun qatlamga ta'sir qilish usullarining barcha omilkor kg'rinishlarini ishga solmoq darkor. Undan tashqari ba'zi hollarda bu vaqtga kelib 65-70% olinishi mumkin bg'lgan zahira olinganligi tg'g'risida ma'lumot beriladi. Bunday hollarda zahirani hisob-lash vaqtida adashish mavjud bg'lishini e'tibordan chiqarmaslik kerak.

Uchinchi bosqichdagi neft olinishi qatlamning energetik kuchlari kamayganligi va aksariyat quduqdarni suv bosganligi bilan ajraladi. Bu davrda M.M.Ivanovani ma'lumotlariga qaraganda har xil ob'ektlarda neftning 30-50 % miqdorida mahsulot olinishi mumkin. Bunda qazib chiqarish jarayonini tartibga solish ishlari bilan jiddiy shug'ullanishga tg'g'ri keladi, quduqlarning suv bosishini kamaytirish choralarini kg'riliadi. Bu davrda mahsulot olishning kamayish sur'ati turlichadir va u kg'p kg'rsatkichlarga bog'liq. Buni M.M. Ivanova g'z ishlarida kg'rsatgan. Bu holat asosida neftni suv bilan siqib chiqarilgan va uzoq muddat davomida qazib olinayotgan ob'ektlar ma'lumotlarini tahlil qilish natijasida YU.I. Bragin tg'g'ri chiziqli bog'liqlikni yaratdi.

$$\Delta q = (2,85 \div 3,45) / I$$

bu erda: I - zahiralardan foydalanish jadalligi;

$\Delta q$  - mahsulot olinishining g'rtacha pasayishi.

Ob'ektlarni qazib chiqarish jadalligi va g'rtacha yillik mahsulot olinish pasayishining g'rtasidagi bog'liqlik 2 dan 30-35% gacha g'zgarar ekan. Uncha katta bg'lman kamayish sur'ati yuqori qovushqoqli neftuyumlariga xosdir. Nefti oz qovushqoqlikka va kollektori yuqori g'tkazuvchanlikka ega bg'lgan uyumlarda pasayishlik sur'ati ancha kattadir. Bunday uyumlar uncha katta bg'lman bg'lib, ular pasayish sur'ati boshlagunga qadar jadallik bilan qazib chiqariladi. Uchinchi bosqichdagi neft olinish sur'atining jadal kamayishi maqsadga muvofiq emas. Buning natijasida tuman va ijtimoiy bg'linma bg'yicha neft olinishi keskin kamayib, xalq xg'jali-giga manfiy ta'sir kg'rsatishi turgan gap. SHuning uchun uchinchi davrda neft chiqarish ishlarini boshqaradigan, uning pasayish sur'atini kamaytiradigan omillarni tadbiq qilishga katta z'tibor berish lozim bg'ladi va qazib chiqarish jarayonini takomillashtirish choralarini kg'rish taqozo etiladi.

Kg'p qatlamli konlarda qazib chiqarishning bir qancha ob'ektlari mavjud bg'lganda bunday hollarda uncha katta qiyinchilik sodir bg'lmaydi, chunki ob'ektlar birin-ketin ishga tushirilishi tufayli biridan kamayish, ikkinchi bilan tg'ldiriladi, natijada uzoq muddat davomida g'sha kon bg'yicha yuqori kg'rsatkich barqaror bg'lishi mumkin. Undan tashqari kam mahsuldor uyumlarda ham hech qanday mahsulot olishni chegaralash ishlariga yg'l qg'yilmaydi, chunki ularda shunday ham o'sish katta bg'lmaydi.

Kg'p yillik natija va tajribalar shuni kg'rsatadiki uchinchi bosqichning oxirida olinadigan mahsulotning umumiy miqdori olinishi mumkin bg'lgan zahiraning 75-90% ni tashkil etishi mumkin. Bundagi kam ko'rsatkich nefti yuqori qovushqoqlikka ega bo'lgan uyumlarga xosdir. U aksincha nefti kam qovushqoqlikka ega g'tkazuvchanligi yaxshi kollektorga ega bg'lgan konlarda shu davrlar ichida zahiraning 80-90% olib bg'linadi.

Tg'rtinchi bosqichning muddati avvalgi uchchala bosqich vaqtini qg'shaganligi vaqtiga to'g'ri keladi. Bu davrda qazib chiqarish sur'ati 2% (g'rtacha 1%) kamaygan holda zahiraning 10-25% miqdorida neft chiqarish mumkin.

### **10.2.3. Neft beruvchi ob'ektlar mahsulotining suvlanishi**

Qatlamdan neftni suv bilan siqib chiqarish jarayonida qatlam mahsulotida suv mavjudligi tabiiy hol. Mahsulotning suvlanganlik darajasi quyidagicha hisoblanadi:

$$V = (q_s / q_{s_{\text{gyuq}}}) \cdot 100 \%,$$

bu erda: V - mahsulotning suv bosganlik darajasi;

$q_s$  - mahsulot bilan chiqqan suv;

$q_{s_{\text{gyuq}}}$  - qatlamdan olingen umumiy suyuqlik miqdori.

Har bir ob'ektda mahsulotning suv miqdori bir necha foizdan boshlanib, to 98-99% gacha borib etadi. Suv bosishlik xususiyati qatlamning va undagi suyuqliklarning xossalariiga qarab har xil holatda ketadi.

Qatlam sharoitida kam qovushqoqlikka (5gacha) ega bg'lган holatda birinchi bosqich davrida deyarli qatlam mahsulotida suv bg'lmaydi. Ularda suv ikkinchi bosqichning boshlarida paydo bg'ladi. Aksariyat suvning miqdorini kg'rsatuvchi egri chiziq abtsissa chizig'iga teskari g'girilgan, ularning tg'g'ri chiziq kg'rinishida bg'lishi deyarli kuzatilmaydi.

Mahsulotning 80-85% suv bosganik holatida olinadigan nefting miqdori 10-20% dan oshmaydi. Hamma sharoitda suv bosganlikning har xil bg'lishi uyumning geologik xossalariiga bog'lanib ketadi. Katta miqdordagi suv bosganlik kollektor-ning notekisligiga tg'g'ridantg'g'ri bog'liqdir. Undan tashqari, suv-neftli maydoni salmoqli bg'lган katta neft konlarida va uning ustiga neftni qovushqoqligi yuqori bg'lsa, suv bilan neftni siqib chiqarish jarayoni murakkablashadi. CHiqaruvchi quduqlar tg'ri siyraklashgan holatlarda suv bosish jadallasha-di. SHuni ta'kidlash lozimki, kam qovushqoqli neftlar uyumlarni qazib chiqarish jarayonida mahsulotni suv bosishligi uchinchli bosqichning oxiriga juda har xil bg'lib 30-85 % gacha g'zgarishi mumkin.

Nisbatan yuqori qovushqoqlikka ega bg'lган neft uyumlarning suv bosishlik xususiyati mahsulotni suv bosib qazib chiqarishning dastlabki vaqtidan boshlanib, tezlik bilan avj oladi va 80-85% ga etadi. SHundan sg'ng suv bosishlik kamayadi yoki bir darajada qoladi. 80-85% suv bosganlik sharoitida qatlamdagи nefting yarmi va undan

ortig'i olinadi. Uchinchi bosqichning oxirida suv bosganlik 85% dan ortiq bg'ladi.

Qazib chiqarish jarayonini boshqarish va nazorat qilish hamda sharoitga qarab barcha texnologik ahvolni moslashadirish bevaqt suv bosish jarayonini g'sishini oldini oladi va sekinlashtiradi. Lekin shuni ham unutmaslik darkorki, harakatlanuvchi suvni nog'rin tg'xtatib qg'yish, qatlamda kg'plab neftning qolib ketishiga sabab bg'lishi mumkin.

#### **10.2.4. Suyuqlik olishning sur'ati**

Olinadigan mahsulotni suv bosishi sharoitida etarli darajada neft olishga erishish uchun suyuqlik miqdorini oshirish taqozo etiladi.

$$Z_{\text{suyuq}} = \left( Q_{\text{SUYUQ}} / Q_{\text{O.M.N.}} \right) - 100 \%,$$

bu erda:  $Z_{\text{suyuq}}$ -suyuqliknii olish sur'ati;

$Q_{\text{suyuq}}$ -suyuqlikning yillik olinishi;

$Q_{\text{o.m.n.}}$ -olinishi mumkin bg'lган neft zahiralari.

Qatlamdagи suyuqlik olishning oqilona g'zgaruvchanligi undan olinuvchi neft miqdoriga va suv bosuvchanlikka bog'liq bg'lib, bularning hammasi qatlamning geologik sharoitlariga va ulardagi suyuqliklar xossalariга bog'liqdir.

Kam qovushqoqlikka ega neft konlarini qazib chiqarish jarayonida suyuklik olishning g'zgarishi ayniqsa uchinchi bosqichda ajralib turadi.

Ko'p yillik tajribalarni umumiylashtirish natijasi shuni kg'rsatadiki, uchinchi bosqichdagi yillik suyuqlik olish darajasi va uning g'zgarishi uch xil yg'nalihsda namoyon bg'lishi mumkin: 1) suyuqlik olishning kamayishi; 2) ikkinchi bosqichda suyuqlik olinish darajasining saqlanishi; 3) suyuqlik olinishning doimiy g'sishi, natijada ikkinchi bosqichdagi darajadan 1,5-2,5 marta ortishi mumkin.

Uchinchi bosqichda suyuqlik olishning kamayishi katta bg'lmagan yuqori maxsuldarlik xususiyatiga ega konlarga xos bg'lib, ikkinchi bosqichda yuqori sur'at bilan mahsulot olingan va unda mahsulotning suv miqdori kam bg'lганligi e'tiborga loyiqdir.

Uchinchi bosqichda ikkinchi bosqichda olingan suyuqlik-ning barqarorligini saqlash yuqori mahsuldarlik xususiyatla-riga ega katta konlarga mansub xususiyatdir. Bularda uchinchi bosqichning oxiriga borib mahsulotning suv miqdori 50-70% ni tashkil etadi va ikkinchi bosqichda neft olish sur'ati olinishi mumkin bg'lgan neft zahirasining 6-7% ga etadi.

Uchinchi bosqichda suyuqlik olishning doimiy g'sishi g'zgaruvchan fizik xossalarga ega bg'lgan kollektorli va ancha katta suv-neft zonasiga ega bg'lgan konlarga xosdir. Bularda g'tkazuvchanlik past, natijada ikkinchi bosqichda mahsulot olishda yuqori kg'rsatkichlarga - erishilmagan, mahsulotning suv bosganligi 70-85% ga etgan. SHuning uchun ham bularda suyuqlik olishni oshirib, shu bilan birga kg'pgina neft ham chiqariladi.

Qatlama yuqori kg'rsatkichli qovushqoqlikka ega bg'lgan konlarni qazib chiqarish jarayonida, ikkinchi bosqichda suvning miqdori 40-50% ga etgan bg'lib uchinchi bosqichning oxirida esa bu kg'rsatkich 90-95% ga etadi. SHu sababdan bunday konlarni qazib chiqarish jarayonida birinchi bosqichning oxiridan boshlab suyuqlik olishni jadallashtiriladi va nkkinchi bosqichda suyuqlik olish neftga nisbatan 4-6 baravar ortiq bg'lishi mumkin.

Tg'rtinchi bosqichda ob'ektlardan suyuqlik olishning sur'ati uchinchi bosqich oxiridagi darajada davom ettiriladi.

Kon bg'yicha oqib o'tadigan suv miqdori va pirovard neft beruvchanlik ma'lumki, neft qatlamdagagi g'ovaklarga tarqalgan bg'lib, ularni suv bilan haydab chiqarish qatlamning geologik-fizik xossalariiga hamda suyukliklar (neft va suvning) xossalariiga chambarchas bog'liqdir. Ishlatiluvchi ob'ektning tuzilishidagi xilma-xillik ham bu narsaga katta ta'sir qiladi va xilma-xillik ortgan sari neft haydab chiqarish murakkablashadi va og'irlashadi.

Qatlamdagagi neftning olinish koefitsienti bilan olib g'tgan suvning miqdori orasidagi tahlil qilish maqsadida yuqorida keltirilgan tg'rt xil sharoitdagagi va ularning qazib chiqarish sharoitlarini bir-biriga solishtirilib chizma chizil-sa egri chiziqlarning boshlanishi tg'g'ri chiziqdan iborat bg'lib, suvsiz ishslash davrini bildiradi. Mahsulot tarkibida suv paydo bg'lishi bilan tg'g'ri chiziqdar egri chiziqlarga aylanadi. Qatlamning geologik-fizik xossalari yomonlashuvi bilan undan g'tadigan suvning hajmi 1,5-2 dan 6-7 gacha o'sadi. YUqori

mahsuldor qatlamdan bir hajm suv o'tgan holatda zahiraning asosiy qismi olib bg'linadi, ikkinchi hajm qatlamdan g'ta boshlagan sharoitda olingen neftning miqdori ozgina. Uyumlarning xususiyatlari yomonlashgan sari undan g'tgan hajm suvning samaradorligi ortib boraveradi va miqdori ham ortadi. Lekin suv bilan har qancha kg'p yuvilishiga qaramay bunday kon olingen neftning umumiy miqdori past kg'rsatkichga ega bg'ladi. CHunonchi, yuqori fizik-geologik kg'rsatkichlarga, demak, yuqori mahsuldorlikka ega bg'lgan konlardagi neft beruvchanlik koeffitsienti 0,6-0,7 ni tashkil qilgan bg'lsa, notejis xususiyatlari kollektorlardagi kam qovushqoqli neftlar uyumlarining neftberuvchanligi 0,5-0,55 ga tengdir. YUqori qovushqoqli neftga ega bg'lgan konga 7-8 hajm suv kirishi 0,4-0,45 kg'rsatkichli neft beruvchanlikni ta'minlaydi xolos.

Keltirilgan ma'lumotlardan shunday xulosa chiqadiki, neft konlarini qazib chiqarish jarayonida ularning xususiyatlari va sharoitlariga qarab yuqoridagi boy tajribaga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

#### **10.2.5. Gaz chiqarish**

Gaz konlarini qazib chiqarishni ba'zi mutaxassislar uch davrga, ba'zilari esa tg'rt davrga bg'ladir. Birinchi holatda oxirgi uchinchi va tg'rtinchi bosqichlar qg'shib yuboriladi. Fikrimizcha bunda ham neft konlarida qilingandek tg'rt bosqichga bg'lish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqich - birinchi galdeg'i quduqlarni qazish va gaz olishni oshirish zarur.

Ikkinci bosqich - anchagina barqaror gaz olishni zarur bg'lib, bunday holatga ba'zan qg'shimcha quduqlar qazish evaziga erishiladi, Bu davrning uchinchi davr bilan chegarasini aniqlash mushkul, shuning uchun gaz olish 10% kamaygan vaqtini uchinchi davrga g'tish vaqtini deb qabul qilishadi.

Uchinchi bosqich - bu vaqtida gaz olishning jadal kamayishi kuzatiladi.

Tg'rtinchi bosqich - juda kam miqdorda gaz olinadi va uni qazib chiqarish tg'xtatiladi. Gaz konlarini qazib chiqarish tajribasini

umumlashtirgan A.L.Kozlov, P.G.SHmyiglya va boshqa kg'plab tadqiqotchilariga qaraganda zahira 3 mlrd.m<sup>3</sup> gacha bg'lган konlarni qazib chiqarishni va ularning bosqichlarini belgilash juda katta g'zgaruvchanlikka ega ekan, Konlarning kattaligi ortishi bilan bu g'zgaruvchanlikning chegarasi kamayadi. Bunga sabab asosan katta konlar mahsulotini ishlatish uni uzoq masofalarga uzatish va katta ob'ektlarni ta'minlash bilan bog'langanlikdir. Gaz bilan ta'minlashning asosiy vazifasi ikkinchi bosqichning muddatini uzaytirishga qaratilgan bg'lishi kerak. 3 mlrd.m<sup>3</sup> gacha zahiraga ega bg'lган konlarda birinchi bosqichning davomiyligi ba'zan bir yilga ham etmaydi, ba'zan esa u 10 yildan ham ortib ketadi. 20-50 mlrd.m<sup>3</sup> zahiraga ega bg'lган ob'ektlarda uning uzunligi 2-10 yilni tashkil etadi, undan kattaroq konlarda esa muddat 4-8 yilni tashkil etadi.

Ikkinci bosqichning muddati 50 mlrd.m<sup>5</sup> gacha bg'lган konlarda 10 yilgacha, undan kattaroq konlarda esa 4-10 yilni tashkil etadi. 3 mlrd.m<sup>3</sup> zahiraga ega bg'lган konlardagi yillik gaz olish zahiraning 5-40% ni tashkil etsa, 3-50 mlrd.m<sup>3</sup> zahiraga ega konlarda 5-13% ni, undan kattalarida esa 5-8% ni tashkil etadi. Ikkinci bosqichning oxirida, ya'ni gaz olish keskin pasayishi davriga kelib qatlamdagi gazning 40-70% miqdori olingan bg'ladi. Barcha yirik konlarni qazib chiqarishning asosiy muddati davrida balans zahira, 60-70% miqdori olib bg'linadi, bu hol neft konlarini qazib chiqarishdan ancha farq qilishligini kg'rsatadi. SHunday qilib, gaz konlarida ikkinchi bosqichning oxirida gaz beruvchanlik ancha yuqori kg'rsatkichga etgan bg'ladi.

Uchinchi bosqich davomida gaz konlaridan 20-30% gaz zahiralari olinadi. Bu davrga kelib gaz quduqlarining soni gaz rejimida ishlayotgan bo'lsa kamaymaydi, lekin suv siquvi rejimida ishlayotgan bg'lsa ba'zi qudukdar suv bosganligi tufayli tg'xtatilgan va ishlatish fondidan chiqarilgan bg'lishi mumkin. Uchinchi bosqichning muddati avvalgi ikkinchi bosqich bilan bog'langan va shunga qarab belgilanadi.

Tg'rtinchi bosqichda gaz olish uning iqtisodiy foyda kg'rsatkichi tg'g'ri kelganga qadar davom etib, uning muddati ham undan avvalgi uchala bosqichlar vaqt va qolgan gaz miqdoriga qarab davom etadi.

Gazkondensat konlarini qazib chiqarish va ishlatish jarayonlari ham xuddi gaz konlaridek kechadi. Agar ularni qazib chiqarishda "saykling jarayon" qg'llanadigan bg'lsa, bunda ahvol boshqacharoq bg'lib, albatta ularni qazib chiqarish muddati va mahsulot olish masalasi boshqacha hisob-kitobga muntazir.

#### **10.2.6. Neft, gaz, suv chiqarishni, qatlamni suv bosishini, qatlamga suv haydashni kuzatish, hujjatlashtirish va hisobot**

Quduqlarning mahsulot berishi, qabul qilishi, mahsulotning suvlanishi, gaz omilini kuzatish-neft konlarini qazib chiqarish jarayonidaga eng jiddiy ishlardandir.

Quduqlarning suyuqlik bg'yicha debitini (agar faqat neft bilan ishlayotgan bg'lsa neft, agar suv ham bor bg'lsa – neft bilan suv) "sputnik" - ("yo'ldosh") turdag'i avtomatik g'lhash asboblari yordamida bir kecha-kunduz (sutka) davomida tonna hisobida g'lchanadi (t/sut). Konda avtomatik g'lhash asboblari bg'lмаган taqdirda, quduq debitini induvidual g'lhash asboblari orqali bajariladi. ""Sputnik" nomli asbob neft va suvning miqdorini alohida massasi bg'yicha aniqlandi, shuningdek umumiyl suyuqlik tarkibida suvning % aniqlandi. Agar asbobning kg'rsatkichlari uncha ishonchli bg'lmasa, suyuqlik chiqadigan joydan (вълкоднaya liniya) uning namunasi olinadi va Din va Stark asbobi yordamida aniqlanadi.

Quduqdan chiqayotgan gaz miqdori "sputnikka" g'rnatilgan gaz hisoblagich "Agat I" va individual g'lhash asbobi bilan g'lchanadi. Quduqlarning gaz omili (gazoviy faktor)  $m^3/t$  hisobida g'lchanadi, bunda gazning miqdorini undan ajratilgan neft miqdoriga nisbatan olinadi. Butun quduqlardan yig'ilgan ma'lumot orqali ishlayotgan ob'ekt bg'yicha ham g'rtacha ma'lumotni aniqlash mumkin.

Haydovchi quduqlarning qabul qilish qobiliyati  $m^3/sut$  hisobida olib boriladi va uni nasos stantsiyasida g'rnatilgan diafragmma tg'riga g'lchagich yordamida aniqlanadi. Agar suv bir yg'ldan bir necha haydovchi quduqlarga yuboriladigan bg'lsa, bir

quduq ishlab, boshqalari tg'xtab turgan holatda. Quduqlarning qabul qiluvchanligi aniqlanadi.

Gaz quduqlarining debiti gaz yig'uvchi guruhli qurilmalar va gaz yig'uvchi joylar (gazosborniy punkt) da aniqlanadi. Bunda har xil tuzilma va ishlashga moslashtirilgan g'lchagichlar yordamida g'lchovlar ijro etiladi. Agar umumiy gaz quvurlarga ulanmagan yoki bosim juda kam quduqlari mavjud bg'lsa, ulardagi gazni kritik oqimli diagfragmmali g'lchagich (DIKT) orqali g'lchanadi.

Katta qalinlikka zga bg'lgan yoki kg'p qatlamlardan iborat ob'ektlarda har bir qatlamning ishlash kg'rsatkichla-rini aniqdash uchun chuqurlikda oqimi g'lhash yoki haroratni g'lhash asboblari orqali aniqlanadi.

